

РАХИМ ТОҲИРОВ

НУРАФШОН УМР

(Саъдулла Рӯзматов ҳақида хотиралар)

Тошкент
«Муҳаррир» нашриёти
2012

УДК: 821.512 164-4

КБК 66.3 (5Ў) 6

Т 74

Мөсағат

Тоҳиров, Раҳим.

Нурафшон умр: (Саъдулла Рўзматов ҳақида хотиралар / Р. Тоҳиров. – Тошкент: «Мухаррир», 2012. - 64 б.

КБК 86.3 (5Ў) 6

Хоразмлик Раҳим Тоҳиров узок йиллар турли хўжалик ва ташкилотларда раҳбар лавозимларида ишлаб, обрў-эътибор топган инсонлардан биридир. Мехнат фаолияти даврида устозлари ўгитига амал этди; натижада улкан ютуқларга эришди.

Кўлингиздаги рисолада муаллиф фақат Туркманистанда эмас, балки Ўзбекистонда ҳам ўзининг ҳалоллиги, одамийлиги, раҳбарлик ва ташкилотчилик истеъоди билан танилган атокли раис, Мехнат Қаҳрамони, Туркманистан Қаҳрамони, Туркманистаннинг Ҳурматли Эл Оқсоколи Саъдулла ака Рўзматов ҳақидаги хотираларини баён қиласди.


Рисола сиз азиз китобхонларга манзур бўлади, деган умиддамиз.

Такризчи:
Баходир Каримов,
филология фанлари доктори

№ 42148
D

ISBN 998-9943-25-068-0

© «Muҳarrir» нашриёти, Тошкент, 2012 й.



Нурафшон умр

Буюк инсонлар бу ёргуғ оламдан үтгандан кейин йиллар ўтиши билан улар қылган эзгу амаллар тобора ойдинлашиб, тұлалигича янги-янги маънно ва мазмун, моҳият касб этиб бораверади. Зеро, истеъдодли шоир Мақсуд Шайхзода айтганидек:

Умрлар бұладики,

Тиригіда ўлықдир.

Умрлар бұладики,

Мангуликка тирикдир.

Тириклик чоғида ўзининг инсоний қадр-қиммати, ҳалол меҳнати, ташаббускорлиги-ю тадбиркорлиги билан минглаб кишиларга ибрат бўлиб, ўзига ҳайкал ярата олган буюк инсонларнинг ҳаёти келгуси авлодлар хотирасида абадий яшайди. Ана шундай табаррук инсонлардан бири Мехнат Қаҳрамони, Туркманистон Қаҳрамони, Туркманистоннинг Ҳурматли Эл Оқсоқоли, умрининг 53 йилини ўзи туғилиб ўсган жамоа хўжалигига раислик қилиб үтган машхур бободеҳқон, ташаббускор ва қишлоқ хўжалик соҳасида ўзига хос мактаб ярата олган ажойиб инсон Саъдулла ота Рўзматовдир.

Саъдулла ота 92 йил умр кўрди. Уни фақат Туркманистонда эмас, балки Марказий Осиё минтақасида, хусусан, кўшни Ўзбекистонда ҳам кўпчилик яхши танир эди. Унинг ибратли иш тажрибасини ўрганиб, ўзларининг хўжаликларида кўллашга ҳаракат қиласиди.

Менинг Саъдулла ота билан танишлигим тарихи узоқ даврга бориб тақалади. Ёш пайтларим ота-онамдан Шовот туманининг Моноқ қишлоғидаги “кўраклар” қавмига тегишли қариндошимиз – Дошўғиз шаҳрида яшовчи Холмат aka ҳақида, “Ёрмиш” қишлоғига яшаётган қариндошимиздан эса Саъдулла aka ҳақида илк бор эшитганман.

Урушдан кейинги йилларда Холмат ота шаҳардаги ион заводида директор бўлиб ишларди. Очарчилик йилларида у бутун Монок ахли ҳамда қариндошларни ион ва ун маҳсулотлари билан таъминлаб турганини одамлар ҳалигача яхши эслашади.

Биз ўша пайтлари бозор кунлари Дошўғиз шаҳрига бориб, Холмат отанинг уйида бир кеча меҳмон бўлиб келардик. Байрам исмли ўғли билан бирга ўйнаганларимни ҳамон эслайман. Саъдулла акаларнинг уйлари узоқроқда бўлгани учунми, сийракроқ борди-келди қиласардик. Ўтган асрнинг 60- йилларида институтни битириб, Шовот туман “Сельхозтехника”сида, кейин туман қишлоқ хўжалиги бошқармасида бошлиқ пайтларимда тажриба алмашиш учун Саъдулла аканинг колхозида чигит экишга бағишиланган семинарларда қатнашиб, яқиндан танишганман. Ўша пайтларда Ўринбой Байрамов Дошўғиз тумани қишлоқ хўжалиги бошқармаси бошлиғи эди, 70-йилларда мен Шовот туманида, Ўринбой ака қўшни Дошўғиз туманида раҳбар бўлиб ишлаган пайтларимиз борди-келдилар анча яхши йўлга қўйилди. У киши билан қалин дўст эдик, чехраси очик, ҳаммага меҳрибон ажойиб инсон эди. Оллоҳ у кишидан рози бўлсин!

Саъдулла ака билан ўша йиллари тез-тез хабарлашиб, ишлар юзасидан гаплашиб турардик. У киши бизнинг Шовот туманида олиб борилаётган ободонлаштириш ва қурилиш ишларимиз тўғрисида ҳаммага фахрланиб гапиради. Ҳатто бир куни Дошўғиз вилоятининг биринчи раҳбари Байри Отаевга мени мақтаб гапирган экан. Шундан кейин мен Байри оға билан дўстлашиб қолган эдим. Бунга яна бир сабаб: Байри Отаев ва Хоразм вилоятининг раҳбари Мадиёр Худойбергановлар қалин дўст бўлиб, чегарада ҳам турли маросимларда тез-тез учрашиб турар эдилар. Саъдулла ота Байри оғани жуда қадрлар, Байри оғанинг ҳам Саъдулла

отага хурмати ниҳоятда баланд эди. Улар кўп йиллар ўзаро иззат-хурматда – оғзибир бўлиб ишладилар.

Охири марта Саъдулла ота ва бир гурух хоразмликлар билан Байри оғанинг жанозасига қатнашиб, у кишининг яқинларидан кўнгил сўрадик. Оллоҳ у кишидан рози бўлсин!

– Жанозада Байри оғани қишлоқдаги уйидан – сомон сувоқли эскигина бир ҳовлидан чиқардилар. Бундан ҳаммамиз Байри оғанининг нақадар камтарин инсон ва раҳбар бўлганидан ҳайратга тушган эдик.

Маросимда мен иккинчи марта Туркманистоннинг ўша пайтдаги катта раҳбари Мухаммадназар Faфуровни учратиб, у билан қучоқлашиб кўришдим ва унга таъзия билдиридим. Мухаммадназар Faфуров ҳақида гап кетганда, шуни айтишни жоиз деб биламан: ўша пайтларда Шароф Рашидов вилоят раҳбари Мадиёр Худойберганов билан Шовот туманига келган эдилар. Улар тумандаги Махтумқули номидаги жамоа хўжалигида, яъни Туркманистоннинг Дошўғиз вилояти билан чегарадош қишлоқда қурилган икки қаватли болалар боғчасининг очилиш маросимида иштирок этган эдилар. Мехмонларни кузатаётганимда Мадиёр aka менга: “Рахимбой, сен эртага тушга караб, мабодо биз кечикадиган бўлсак, чегарада Faфуровни ўзинг кутиб оласан. Чегарада Шароф Рашидов ва Faфуров Нуржон Ботир боғида учрашадилар”, деб мени орқага қайтариб юборди. Мен дарров Нуржон Ботир боғига бориб учрашувни ташкил қилиш бўйича тегишли раҳбарларни йигиб, топшириқлар бердим.

Эртасига соат 12 ларда Faфуровни кутиб олдим. Нуржон Ботир даргоҳи учрашувга бир кечада тайёланган эди, юз метрлаб янги йўлаклар тузатилганди.

Мен Faфуровни кутиб оларканман:

– Ёшулли, Шароф Рашидович бугун эрталаб Туямўйин сув омбори қурилишига кетган, сал кечикиши мумкин, – деб янги тузатилган йўлакка таклиф этдим. Faфуров Рашидов

келганича кутиб туришини айтди. Ярим соатдан кейин Рашидов ва Худойбергановлар етиб келди;Faфуров билан жуда илик сўрашишди ҳамда дастурхон атрофига ўтиришди. Сұхбатдан билдимки, ўша йили Муҳаммадназар Faфуров 60 ёшга тўлган экан. Рашидов уни қутлаш учун Ашхободга бора олмай қолгани сабабли учрашув ташкил килинган экан.

Шароф Рашидов Туркманистон раҳбари Муҳаммадназар Faфуровни 60 ёшга тўлгани муносабати билан самимий табриклади ва бошига телпак, эгнига зар чопон кийгизиб кутлади.

Кейин тушлик вақтида дўстона қизғин сұхбат бўлди. Ўз навбатида Faфуров қабул учун миннатдорчилик билдириб, кўшни Туркманистонни ривожлантиришда Шароф Рашидов ҳам Москва орқали кўп масалаларни ҳал қилишда ёрдам берадётганини айтиб ўтди. Шу аснода учрашув якунига етди. Икки кўшни Республика раҳбарлари илик хайрлаши.

Шунингдек, Жizzахга кўп йиллар Қозоғистоннинг биринчи раҳбари бўлиб ишлаган Динмуҳаммад Кунаев ва хозирги Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовлар ҳам ташриф буюришган эди. Кўпдан бери таниганим сабабли менга Faфуровга ҳамроҳлик қилиш топширилган эди.

У кунлар умримнинг охиригача хотирамда сақланиб қолади.

1974 йилда шовотликлар паҳта етиштириш бўйича катта ғалабага зришиб, давлатга 50 минг тонна “оқ олтин” топширдилар. Шу куни Хоразм телевидениесида бу меҳнат ғалабамизга бағишиланган кўрсатувда қатнашишни илтимос этиб, Саъдулла отага қўнғироқ қилдим. Ота бу хушхабар билан мени табриклаб, курсанд бўлдилар ва Урганчга, албатта, етиб келишини айтдилар. Шу куни ота биз билан бирга бўлиб, телевидение орқали табрик сўзлари айтиб, яхши тилаклар билдирилар. Булар ҳаммаси шунчалик самимий ва табиий эдики, буни Саъдулла отанинг ўз ота-

боболари элига бўлган меҳр-муҳаббати, дил изҳори деса бўлади. Бу табрик ва эзгу тилаклар ҳалқимиз қалбини қувончларга, фахр-ифтихорга тўлдирди. Кейинги 30-35 йил давомида отадан кўп нарсаларни ўргандим. Саъдулла отанинг хоразмликларга, хусусан, шовотликларга ҳурмати баланд эди. Айниқса, ёш раҳбар ҳамда қариндош сифатида менга отанинг эътибори катта бўлганини доим сезиб турардим. Мен ҳам ул зотни отамдек кўрардим. “Рейимбой” деса, оғзидан бол томарди. Ота ўта камтарин, камсўз эдилар. Тўй, маросимларга хабар берсангиз, ҳар қандай шароитда ҳам келиб қатнашардилар. Аммо бизлар кўп ҳолларда у кишини безовта қиласликка ҳаракат қиласдик. Ўғилларим тўйларида, акам ва ўғлимнинг маросимларида қатнашиб, менинг яхши-ёмон кунларимда кўнглимни кўтарганлар. Соғлиги бўйича Урганчдаги шифокорларда даволанар эдилар. Улар ҳам отани ниҳоятда ҳурмат қиласуф, ҳам бободеҳқон, ҳам чорвадор ва ниҳоят катта қурувчи эдилар. Меъмор ва табиат шайдоси, юксак маданиятли давлат ва жамоат арбоби каби хислатлари билан Ўзбекистон ва Туркманистон ҳалқи ҳамда раҳбарлари ҳурмат-эътиборига сазовор бўлган баҳтли инсонларнинг бири эди.

Агар Комилжон Отаниёзов ўзбек ва туркман ҳалқлари дўстлиги кўпригининг Ўзбекистондаги устуни бўлган десак, Саъдулла Рўзматов – ҳожи отамиз ҳам бу кўприкнинг Туркманистондаги мустаҳкам устуни эди ва бундан кейин ҳам шундай бўлиб қолаверади.

80-йилларнинг ёз ойларидан бирида Саъдулла отага: – Сизнинг олдингизга эрталаб соат 9 ларда Шовот тумани ва хўжалик раҳбарларини ишларингизни ўрганиш учун олиб бормоқчиман, – деб кўнгироқ қилдим. Саъдулла ота таклифимни хурсанд бўлиб қабул этди.

Эрталабдан тушгача Саъдулла ота бошчилигига далаларда олиб борилаётган ишлар билан танишидик. Ёзсаларнинг эгати 90 см. кенгликда экилган эди. Барча пахтачилик бригадаларида “Беларусь” тракторлари ишлаб турарди. Ёза пайкаллари кондириб суғорилганга гувоҳ бўлдик.

Умуман олганда, қишлоқ хўжалиги ишлари комплекс механизация асосида ташкил қилиниб, бу ерда аҳолини оғир кўл меҳнатидан озод этиш сиёсати олиб бориларди.

Тушда колхоз меҳмонхонасида шовотликлар учун катта зиёфат берилди. Меҳмонхона атрофи катта бокка айлантирилган, олдида ҳовуз, теварак-атрофлари гужум дарахтлари билан ўраб олинган эди. Ён томондан эса юзлаб гужумлар экилган масканни кўриб, қалбимиз дарёдек жўш урди. Тушликдан кейин колхоз чорвачилик фермасига бордик. Чорва фермаси замонавий молхоналару мустаҳкам ем-хашак базаси комплекс механизацияга асосланган эди. Буларнинг ҳаммаси бизларда жуда катта таассурот қолдирди. Келгуси ишларни режалаштириб олиш учун бизга катта ёрдам берди.

Эсимда: 1983 йил куз ойларининг бирида Саъдулла ота кўнғироқ қилиб қолди, саломлашдик, “Раҳимберган, Урганчдан қайтишда Шовот туманидаги ишларни кўриб кувондим. Темир йўл устида катта кўпприк, Шовот канали бўйида маданият саройи, маъмурий бинолар қурилишини бошлабсизлар, одамлардан ҳам кўп яхши гапларни эшилдим. Маданият ва истироҳат боғи кўзга кўриниб қолибди”, – деб ишларимга омад тилаб, яхши истаклар билдириди. Мен ҳам адаб билан раҳмат айтиб, соғлик-омонлик тиладим.

1985 йилдан Кўшкўпир туманига ўтиб ишлай бошладим. Туманда ўнлаб эскириб қолган мактаблар бор эди. Туман “халқ ҳашари” йўли билан ушбу мактабларни қиска муддатларда қуриб битказиш ташаббуси билан чиқди. Гозовот қишлоғига бир эски мактаб биноси лойиха асосида

1 июнда курилиши бошланиб, уч ойда 1 сентябргача куриб битказилди.

Шу мактаб биносининг очилишига икки Республика раҳбарлари қатнашди.

Мактаб жамоаси, Кўшкўпир тумани аҳли юксак мартабали меҳмонларни қизғин кутиб олди. Улар мактаб биноси, ўкув хоналарини кўздан кечириб, бу курилишга юқори баҳо бериб, учрашув қатнашчилари, қишлоқ аҳли ва курувчиларга ўз миннатдорчиликларини билдиришди. Юқори мартабали меҳмонларни шу даврда Хоразм вилояти раҳбари бўлиб ишлаган М.Мирқосимов бошлаб келган эди.

Улар ўша куни Кўшкўпир туманидан кейин Туркманистоннинг Тахта тумани орқали Саъдулла ота хўжалигига ҳам боришди.

Яқинда Саъдулла ота вафотидан кейин Дошўғизга борганимда унинг тўнғич ўғли Рўзимбой билан хўжаликнинг янгидан ташкил қилинган тарих музейида ўзимнинг ўша маросимда меҳмонлар билан тушган иккита суратимни кўриб қолдим. Рўзимбой улардан бирини менга бериб юборди. Саъдулла отанинг бу суратларни 24 йилдан бери сақлаб қўйгани мени ҳайратга солди.

1988 йилда хўжаликда янги қурилган маданият Саройининг очилиши маросими бўлиб ўтди. Бу маросимда икки қўшни вилоят ва туман раҳбарлари иштирок қилди. Бу кун ҳаётимда ажойиб саналардан бири бўлиб хотирамда абадий қолса керак.

Катта байрамга айланган бу тадбир қўшни икки вилоят халқи раҳбарлари ўртасидаги дўстлик ва борди-келдиларнинг тарихида ёркин саҳифалардан бири бўлиб сақланиб қолади.

Ана шундай ажойиб маросимлардан яна бирида – Саъдулла ота раис бўлган колхоз-агрофирма ташкил топганининг шонли 60 йиллик тантаналарида ҳам иштирок этганман. 1991 йилнинг 10 февраляда қишлоқда бўлиб ўтган

мингга яқин ашхободлик, хоразмлик ва қорақалпоғистонлик меҳмонлар қатнашган бу маросим тарих саҳифаларидан ўчмаса керак. Ўтпанда Хоразм вилояти раҳбари Файрат Машарипов, Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси академиги, филология фанлари доктори Матёқуб Кўшжоновлар нутқ сўзлаб, ўзбек-туркман халқлари азалий дўстлигини яна-да мустаҳкамлаш, маданий-иктисодий алоқаларни ривожлантириш, илм-фанни ўстириш ҳақида қимматли фикр-мулоҳазалар айтди.

Юбилей нишонланган куни, колхозда пахта тозалаш заводи ишга туширилди. Қишлоқ марказнинг орка томонидаги катта майдонда от чопар мусобақалари, хоразмлик ажойиб санъаткорлар Олмахон Ҳайитова, Аҳмаджон Курбонбоевлар, шунингдек, қишлоқ бадиий ҳаваскорлар ансамбли иштирокчиларининг, туркман созандабахшиларининг чиқишилари минглаб томошабинлар олқишига сазовор бўлди.

Яқин ўтган йиллардаги Ашхобод ва Дошѓиз шаҳарларида, кейинчалик Ташкент ва Бухорода икки давлат Президентлари Ислом Каримов ва Гурbonгули Бердимуҳамедовларнинг учрашувлари бу дўстлик алоқаларининг ёрқин намунаси бўлиб қолажак!

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Туркманистонга ташрифи пайтида, Ашхободдаги Руҳият Саройида бўлиб ўтган тантанада Туркманистон Президентининг Фармони билан Ўзбекистон Президентига берилган “Туркманистоннинг Ҳурматли Эл оқсоқоли” унвони нишонини Ислом Каримовга тақиши туркман тўни билан телпагини кийгизиш каби давлат даражасидаги шарафли вазифанинг Саъдулла отага топширилиши у кишининг обрўси нақадар юксак эканини яна бир бора кўрсатди. Шунингдек, ўз навбатида Ўзбекистон Президенти Ислом Каримов ҳам Туркманистон Президенти Гурbonгули Бердимуҳамедовни “Буюк хизматлари учун”

ордени билан мукофотлагани икки халқ дўстлигининг бетакрор рамзи бўлди.

Бўлиб ўтган ушбу воқеани телевизор экранни орқали кўриб, бехос кўзимдан ёш чиққанини сезмай қолганман.

Саъдулла отанинг ҳаёти, босиб ўтган йўли, унинг тақдирни ҳақида чукур ўйласангиз, бир неча ўн йил давомида ишлаб келган Республика раҳбарлари Б.Авазов, М.Фафуров, С.Ниёзов, Г.Бердимухамедовлар ҳурмати ва эътиборига отанинг бунчалик сазовор бўлишининг замирида бир илоҳий сир бўлса керак деган ўйларга борасан киши!

2007 йилнинг 14 сентябрь куни Саъдулла отанинг турмуш ўртоғи Ўғилжон онамиз оламдан ўтгани хабари келди. Биз туман оқсоқларининг раиси Қадамбой Матсафоев, божам, шифокор Йўлдош Рўзматов ва мен Дошўғизга йўл олиб, марҳума онамизнинг оила аъзолари: Саъдулла ота, ўғиллари Рўзимбой, Комилжон, Умрек, Шуҳратларга ўз таъзиямизни билдиридик. Жаноза ўқилгунча Саъдулла ота биз билан ёнма-ён, ҳеч қаёққа кетмасдан бирга ўтириди. Мен Саъдулла отага кўнгиллик бериб, ҳол-аҳвол, соғлиги ҳақида сўрашдим. Орадан анча вақт ўтди, жанозага жуда кўп одам йигилди.

Саъдулла ота секин ўрнидан туриб, менинг қўлимдан ушлади ва одамлар олдидан ўтиб, уй ичига кирдик. Ичкарида ҳамма хоналар аёллар билан лик тўла эди. Улар ўринларидан туриб, бизга йўл бердилар. Оралаб ўтиб Саъдулла ота мени ёз айвон томонга олиб чиқди. Ёз айвондан ўтиб ҳовуз бўйига бордик. Ҳовуз бўйига экилган, анча етилиб қолган тўртта гужум эътиборимни тортди. Кейин бирга кичкина боғни айланиб чиқдик. Мен ўн йиллар олдин ота уйига меҳмон бўлиб борганимда гужумлар анча ёш эди. Ўшанда Саъдулла ота янги қурилиб ишга туширилган, оиласа мослаштирилган иссиқхонани менга кўрсатган эдилар.

Унинг шундай оғир кунида ҳамманинг олдида намойишкорона илтифоти мени ҳайратга солди. Чукур ўйга толдим, бу ҳолатга жавоб излашга ҳаракат қилдим, ниҳоят калаванинг учини топгандай бўлдим.

Инсон умрида қанчалик юксак мартабаларга эришмасин, дилдаги барча орзу-армонлари рёёбга чиқмасин, қанча умр кўрмасин, барибир оғир ва қувончли кунларида киндик қони томган она заминни, кариндошларини, дўстларини кўмсайди; қалбининг қаериладир бўшилик бўлади. Бизнинг ташрифимиз шу бўшиликни тўлдирди, шекилли, деган хулосага келдим.

Маросимдан кейин мархума онамизни жойлаштириб, одамлар қабристондан қайтгач, Саъдулла ота билан бир четга ўтиб, унга кўнгиллик бермоқчи бўлиб:

– Саъдулла ота, кўнглингизда бизнинг жанозага келганимиз бир ёна, бутун элнинг келгани бир ёна бўлган бўлса керак, – дедим.

– Раҳимберган, айтганингдан ҳам зиёда бўлди, – деди у.

Бу воқеани айтишдан мақсад, мен улар қалбини, улар эса менинг қалбимни кўзларимизга қараб тушунардик, сезардик. Саъдулла ота ўта камгап, ҳар кандай одамнинг юзига, кўзига караб лўнда-лўнда қилиб очик ва дадил гапирадиган одам эди. Унинг гапидан бирор хафа бўладими-йўқми, муҳими, кейинчалик уни тўғри тушуниб, тўғри хулоса чиқарса бас эди. Зотан, тўғри сўзлилик ҳақиқат ва адолатнинг бош мезонидир!

Биз Саъдулла ота билан гарчи узоқда бўлсак-да, камдан кам учрашсак-да, бир-биримизни яхши тушунардик.

Бир куни узоқроқ қариндошимиздан бирининг оиласи қийналиб қолганини, узоқда ишлагани учун уйига ойлаб кела олмаслигини билиб, яқинроқ жойдан бирор иш топиб беришини илтимос қилиб, ҳалиги қариндошни Саъдулла отанинг олдига олиб бордим. Саъдулла ота:

— Раҳимберган, бу одамни кўп ишларга қўйиб кўрдим, бўлмади. Кўп ўйландим, отаси билан бирга ишладим, бобоси ҳам яхши одам эди. Ўйлаб-ўйлаб калаванинг учини топдим. Бунинг момосида бироз ишкан бор эди, — деди у одамнинг юзига қараб. Шунда мен ўзимни жуда нокулай сездим. Чунки бу одам арокхўр бўлган экан. Умримда ҳеч қачон бирорвга ва ҳатто ўз фарзандларим учун ҳам иш сўраб ўртага тушмаган менинг аҳволимни кўрсангиз эди. Ота ичадиган одамларни ёқтирилас эди.

— Тўғри-да, биринчидан, арокхўр одам билан дўстлашиб бўлмайди, чунки унинг дўсти арок, — дерди у. — Иккинчидан, ундан одам билан бирор масалани ҳал килишнинг имкони йўқ. Маст бўлгандан кейин ваъдани бераверади, эртага ойилгандан сўнг сўзидан яна қайтаверади. Айникса, масъул ва раҳбар лавозимларда ишлаган одамлар хушёр бўлишлари керак. Хушёр одамлар билан ишласанг, унга не етсин, — деди ота. Отанинг бу сўзлари менга жуда маъқул келди. Қўшкўпирда ишлаган давримда туманда ичкликка қарши анча ишлар қилганмиз. Ўшанда Тошкентга бориб, тегишли ташкилотларга кириб, туманинг 6 миллион сўмлик арок фондини режадан олиб ташлатиб, ўрнига ҳалқ истеъмол молларини киритиб келганман. Албатта, бу сиёсат узоққа чўзилмади. Бугун иккала Республикада ҳам барча ишлар, кўз тегмасин, яхши кетаётир. Аммо мени бир нарса ташвишга солади, тўй-ҳашамларда, айникса, ёшлар спиртли ичимликларни кўп ичади. Бу бизнинг миллий-диний удумларга асло тўғри келмайди. Албатта, ҳаётимиздаги бу каби нуқсонлар вақти келиб тўғри йўлга тушиб кетар, иншаалло!

Отанинг ҳаётдаги айрим масалаларга муносабати, дунёқараши ва унинг фалсафаси ҳақида одамлар ичидагизил-дагишига гаплар ҳам юради. Бир куни ота ўзининг яқин тенгдош дўстлари билан сухбатлашиб ўтирганида ичидан дадилроқ бири:

– Саъдулла дўстим, ёшулли, мана сиз ҳам энди саксон бешдан ўтиб, тўқсонга қараб кетаяпсиз. Рўзимбой анча ёшларга бориб қолди. Унинг устига у қўшни хўжаликка раҳбарлик қилди. Комилжон ҳам ёш эмас, қишлоқ хўжалик соҳасида тажрибаси бор. Ишни, ўрнингизни улардан бирига топширсангиз бўлмайдими? – дебди. Шунда ота:

– Эй, дўстим, сен ҳамма гапни гап деб айтаверасан. Хўш, топширдик ҳам дейлик, барибир боланинг иши бола-да! – дебди жиддий. Бу гапга ўтирганлар роса кулишибди. Мана сизга халқимиздан қолган наклни ўрнида ишлатиш, ҳозиржавоблик намунаси. Юқорида отанинг тўғри сўзлиги ҳақида гапирдик. Ҳар қандай шароитда, ҳеч тортинмай, ҳатто катта анжуманларда Республика раҳбарларига ўз фикрини, тўғри сўзни дадил айтиш одати отада бор эди.

Туркманистон Президенти Г.Бердимухамедов билан сўнгги учрашувлардан бирида отанинг айтишича, Ўзбекистон ва Туркманистон халқлари ўртасидаги алоқаларни янада яхшилаш кераклиги, Ўзбекистоннинг пахта етиштириш соҳасидаги тажрибаларини ўрганиш, қишлоқ хўжалиги экинларига зарар келтирадиган заарли ҳашаротларга қарши курашувчи фойдали ҳашаротлар етиштирадиган биофабрикаларни ташкил этиш кераклиги ва бошқа муҳим масалаларни очиқ айтган экан. Ота кейинги киска вакт ичida ушбу масалалар ижобий томонга ҳал бўлганидан хурсанд эди.

2009 йилнинг 12 декабряда отанинг муборак 90 ёшга кириши тўғрисидаги хабарни эшитгач, Йўлдош оға Рўзметов, Қадамбой Матсафаев, Қадамбой Кўшжонов, Бобохон Исмоилов ва Рустам Жумабоевлар бир кун олдин етиб келдик. Эртасига қишлоқ Маданият саройига бориб, кўплаб дошўғизлик дўстлар ва таниш-билишларни кўрдик. Маданият саройи ўриндиклари лиқ тўла эди. Меҳмонларнинг залда ўтиришига қараб, тантанавор байрам кайфияти ҳукм суришини кузатдик.

Мен умримда кўп анжуманларда, байрамларда қатнашганман. Аммо инсон умрига, қадр-қимматига ва, ниҳоят, унинг хурматига бағишиланган бундай тантаналарни биринчи бор кўришим эди. Бу ҳолат бизнинг ҳам қалбимизни гуур ва ифтихорга тўлдирди.

Буларнинг ҳаммаси Аллоҳнинг инояти ва Туркманистоннинг хурматли Президенти Гурбонгули Бердимуҳамедов раҳномалигига бўлиб ўтаётганини ҳар бир тўй иштирокчиси чин дилдан ҳис этиб мағур ўтиради.

Туркманистон Вазирлар Маҳкамаси раисининг ўринбосари сўзга чиқиб, Республика Президентининг ота номига йўллаган табригини ўқиб берди ва совғалар топширди.

Шундан сўнг вилоят раҳбарлари, касбдошлари, олимлар, Хоразм ва Қорақалпогистондан келган меҳмонлар залнинг охиригача навбатда туриб, ўз совғаларини топшириб, отани бағирларига босиб табриклидилар. Ўз навбатида биз – Хоразм вилоятидан Жумабой Ўтамов билан келган меҳмонлар отага чин юракдан эзгу тилаклар билдиридик. Саҳна гулларга тўлиб кетди. Тантанада иштирок этганларнинг бири, МДҲ (Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги) ижроия комитетининг раиси ва шу комитетнинг ижроия котиби Сергей Лебедев ҳам оддий инсон Саъдулла отага билдирилган бу катта хурмат-эҳтиромдан хурсанд эканини изҳор қилди.

Табрик ва қутловлар тамом бўлгач, ота сўзга чиқдилар. Аввало ўз номига айтилган барча илиқ сўзлар учун келган ҳамма меҳмонларга ва сўзга чиққанларга: “Сизлар ҳам менинг ёшимга етинглар!” деб миннатдорчилик ва тилакларини билдириди. Бу мартабага қандай эришгани сирларини содда қилиб гапириб берди. Урушдан кейин ўқитувчилик қилган, мактаб директори бўлиб ишлаган, кейин 1956 йилда хўжалик раислигига сайлангани, хўжаликда пахта ҳосилдорлигини 10-12 центнердан икки

йил ичида 30 центнерга күттарганини, икки йилнинг натижаларига кўра Мехнат Қахрамони унвони ва “Олтин Юлдуз” тақдим этилгани ҳамда хўжаликнинг кейинги ютуқларини қиска гапириб, сўзи якунида:

– Раҳбар бўлган киши биринчи навбатда меҳнатсевар, ҳалол, одамларга нисбатан меҳрибон, лекин ўзига ва ўзгаларга талабчан бўлиши керак. Агар талаб адолатли бўлса, одамлар раҳбарни ёмон кўрмайди. Қаттиқ талаб натижасида иш унумли бўлади, яхши даромад олинади. Одамлар бунга тушунади. Раҳбар киши уч масалада ўз нафсини тия билиши керак.

Биринчиси: бойликка интилиш, иккинчиси: хотин-қизларга кўз қиздириш, учинчиси: майшатпарамастлик. Ҳалол бўлсангизлар, нафсингизни тийсангизлар, ҳаётда ҳамма нарсага эришасизлар, азизлар! – деб меҳмонларга мурожаат этди.


Бошқаларни билмадиму, аммо шахсан менинг қалбимда бу ўғитлар бир умрга муҳрланиб қолди.

Кечанинг иккинчи қисмида меҳмонлар тушликка тақлиф этилди. Ҳақиқий том маънода байрам дастурхони ёйилган эди. Кечанинг бадиий қисми ранг-баранг, бағоят файзли бўлди. Кечани вилоят ҳокими бошқариб борди. Қутлов ва табриклар давом этди. Хоразм вилоятидан Жумабой Ўтамов бошчилигида бир гурӯҳ делегация аъзолари ва вилоят ҳокими номидан отани табриклаб, совфа-саломлар топширилди. Зиёфат охирида ҳамма хоразмликларга ота номидан туркман тўни ва чўгириналар кийгизилиб, белбоғ боғланди. Кўрсатилган бу иззат-хурматдан барча мамнун эди. Қувончу севинчдан бир-бирини, отани, вилоят ҳокимини қучар эдик. Булар ҳаммаси зал саҳнасида давом этарди. Кеча ана шундай кўтаринки вазиятда ниҳоясига етди. Меҳмонлар бир-бири билан қайта-қайта хайрлашди. Эртаклардагидек бўлиб ўтган бу лаҳзалар фотомухбирлар томонидан суратларга ва видеотасмаларга туширилди.

Юқорида айтиб ўтилган олти нафар киши – шовотлик меҳмонлар кечқурун дам олиш ва тўйнинг якуний қисмини давом эттириш учун меҳмонхонага таклиф этилдик. Улар орасида Ашхободдан келган меҳмонлар ва Саъдулла отанинг ўғли Комилжоннинг бирга ўқиган янгиариқлик дўстлари Арслон Юсупов, Ҳабиулла Рўзматовлар ҳам бор эди. Бир оз дам олганимиздан кейин кечқурун яна базм давом этди ва ҳаммамиз дастурхон атрофига тўпландик.

Кейинги йилларда ота меҳмонхонани мартабали меҳмонларни қабул қилишга мослаб қайтадан қурдирган эди. Қишки боғдаги ҳар хил ўсимликлар, сайраб турган кушлар бизда ўзгача бир хуш кайфият ва таассуротлар пайдо қилди.

Кеча узок давом этди. Табриклар айтилиб, шеърлар, монологлар ўқилди. Шунда отанинг ўғиллари Рўзимбой ва Комилжонларни қайта кашф қилдим. Рўзимбой Россияда ўқиб, рус адабиёти донишманди эканини, катта шахсий кутубхонаси борлиги ва кўп китоб мутолаа қилганини, Комилжон эса ўзбек ва туркман адабиёти ихлосманди, айниқса, шоир Абдулла Орипов ҳамда Омон Матжон шеърларини ёд билишига гувоҳ бўлдим. Комилжон менга Навоий монологини бир неча маротаба айтириб, телефонга ҳам ёзиб олди. Ўзи ҳам монологлар айтиб, ҳаммамизни хурсанд қилди. Шундай қилиб, ҳамма нарсанинг боши ва охири бўлади, деганларидек отага қайта-қайта узок-умр, соғлик-омонлик тилаб дам олиш хоналарига тарқалдик. Эрталаб нонуштага тўпландик. Дастурхон атрофига оиласнинг, отанинг энг яқин инсонлари йифилди. Уларнинг ҳар бири бизни хурматли меҳмон сифатида қадрлаб, барча хизматимизга шай турганини кўриб, ота ҳалқимизнинг қадимий ва энг гўзал урф-одатларидан бири – меҳмондўстлик фазилатини ҳам ўғиллари ва яқинлари қалбига бир камсиз сингдира олганига яна минг карра амин бўлдик. Комилжон энди отанинг ўрнига раис, кишлоп



хўжалиги ҳиссадорлик жамиятини бошқаради. Рўзимбой ҳам кишлоқ кенгашининг арчини қилиб сайланди. Ота нафақат ўз даврида Республикада кўзга кўринган, ҳар томонлама ривожланган, замон талабларига жавоб берадиган агросаноат хўжалиги, ундаги ҳашаматли бинолар, боғу роғлар, обод посёлкалар ва бошқаларгагина эмас, балки ўзининг меҳнати эвазига барпо этилган барча моддий ва маданий бойликларга эгалик этадиган, у барпо қилган мини давлатни бошқариш қобилиятига эга содик ўринбосарларни ҳам тарбиялаб етказганига юз бор, минг бор ишонч ҳосил қилдим.

Нонуштадан кейин отанинг уйига бориб, у билан хайрлашдик ва йўл-йўлакай Дошўғиз шаҳрини томоша қилдик. Шаҳар сўнгги икки йил ичида таниб бўлмас даражада жаҳон шаҳарсозлик ва архитектураси андозаларига мос равишда қайта жиҳозланганини кўриб, катта таассуротлар билан уйга қайтдик. Орадан бир ой ўтгач, отадан тўй тантаналари акс эттирилган фотоальбом ва китобларни олдик. Мана сизга эътибору эҳтиром!

Ота ўз хаёт йўлига бағишилаб ёзган “Мустақиллик – умрим равшанлиги” номли китобида Қадамбой ва мен ҳақимда алоҳида тўхтаб ўтганидан бошимиз осмонга етди. Жумладан, ота шундай ёзадилар: “Отамизнинг сургун қилинганини кўрмай қолганимнинг сабаби бор. Сургун кунидан бир ҳафта олдин биз онамиз билан Шовот туманининг Моноқ қишлоғида яшайдиган, эл ичида “кўраклар” деб ном олган бир неча хонадондан иборат отамизнинг яқин қариндошлариникига меҳмонга кетган эдик. Ҳозирги кунда уларнинг авлодларидан бўлган Рейимберган Тойиров, Қадамбой ва Илҳомбой Матсафоевлар барҳаёт бўлиб, ҳар қайсиси бир бадавлат хонадон соҳибидирлар. Рейимберган Тойиров совет даврида Хоразм вилоятининг Шовот тумани партия комитетининг биринчи секретари лавозимида ишлаб, истеъдодли раҳбар

сифатида зътибор топди. Қадамбой Матсафоев эса Хоразм вилоят радио ва телевидение комитетида воиз, кейинчалик Шовот тумани ижрокоми раиси ўринбосари лавозимида кўп ийллар меҳнат қилди”.

Мен китобни ўқир эканман, кўз олдимда аввало ўзининг, севимли онажони ва яқинларининг ҳаёти учун тинимсиз курашган бола, кейинчалик бутун эл масъулиятини ўз бўйнига олиб, халқ мақолларида айтилгандек “этик билан сув кечган” забардаст эркак қиёфаси кўз олдимда шундок намоён бўлди. Умуман олганда, бу китоб биринчидан, отанинг гарчанд ҳаётий кечинмалари баёни бўлса ҳам, иккинчидан, ўзи яшаган давр, ўша замон одамлари ҳақидаги каттагина маълумотнома сифатида қараш ўринли бўлади. Чунки китобда тилга олинган ҳар бир инсон ўз даврида халқимиз тарихида маълум маънода – хоҳ салбий бўлсин, хоҳ ижобий бўлсин – из қолдириб яшаб ўтди. Узоққа кетиб ўтирмасдан отанинг Ўзбекистон Фанлар академияси академиги, ёзувчи ва адабиётшунос олим Матёқуб Кўшжонов билан боғлик хотираларини ёдга олайлик. Болаликнинг беғубор ийларидан то қарилик давригача ажralmas дўст бўлган бу инсонларнинг ҳаётий фаолияти, уларнинг ўзаро самимий муносабатлари акс этган лавҳалар ота ҳаётининг ҳам, унинг ёзган хотиралар китобининг ҳам ёрқин безаги десак бўлади. Ўз навбатида Матёқуб aka ҳам дўсти Саъдулла ота ҳақида “Қаҳрамон” деб номланган каттагина очерк ёзди. Ота умрининг ёрқин кирралари, чинакам қаҳрамонона ишлари билан бир қаторда унинг чин инсоний қиёфаси, одамларга, илм-фанга, адабиётга муносабатлари ёрқин мисоллар билан ёритилган бу очерк ҳам иккала дўстнинг бир-бирларига юксак эҳтиромидан туғилган асар бўлса ажаб эмас. Шу ўринда бир нарсани алоҳида таъкидлашни хоҳлардимки, отанинг бу хотиралар китоби улуғ ёдгорлик каби бизга, биздан кейинги авлодларга кимлигимиз, эл-юрт олдида қандай мавқени эгаллаганимиз,

бундан кейин қанақа бўлишимиз лозимлигини доимо уқдириб турувчи дастуриламал вазифасини ўташи шубҳасиздир.

Бир марта Қадамбой билан биргаликда отанинг бизга билдирган хурмат-эҳтироми учун ўз ташаккуримизни айтган эдик. Кези келгандан шуни айтиш керакки, ота билан менинг алоқаларимнинг давомийлигини таъминлаб туришда Қадамбой ва божам Йўлдош оға Рўзметовнинг хизматлари жуда катта. Қадамбой қариндош ва туман раҳбари сифатида, Йўлдош оға эса туманнинг биринчи хирурги ҳамда ҳаммамиздан катта бўлгани учун уларнинг ўз ўрни бор. Йўлдош оға 25 йиллардан бери қизи Манзура шу хўжаликда яшаётгани сабабли ота билан борди-келди қилиб, унинг яқин ошнаси бўлиб қолган. Бир куни ота бизнинг божа эканимизни билиб қолиб:

– Ҳа, сизлар ҳали божамисизлар, шунча йилдан буён билмас эканмиз,— деб ҳайрон қолганлар. Ҳамиша учаламиз бирга юрганимизни кўриб, ота хурсанд бўлар эдилар ва бунга отанинг фарзандлари ҳам ҳавас қиласидилар.

Бир куни меҳмонга бориб ота билан узок сухбатлашдик. У раҳбарлик килган давридаги ютуқлари ва қийинчиликлари ҳақида сўзлаб берди.

– Рейимберган, сенга тўғрисини айтсам, шу йиллар давомида оиласидан иқтисодий аҳволи яхши эмас эди. Фақат Президентимиз С.Ниёзов ўз муҳри билан 90 гектар ерни хусусий қилиб бергандан кейин оиласидан иқтисодий аҳволи яхши бўлиб кетди, – дедилар. Кутимаганда отанинг бу сўzlари ҳайрон қоларли даражада таъсир этди, наҳотки 10-15 минг тонналаб дон ва пахта берадиган шундай йирик хўжаликнинг раҳбари оиласида иқтисодий қийинчилик бўлса!

Бу сухбат отанинг 90 ёшга тўлган юбилейидан кейин бўлиб ўтган эди. Ўшанда отанинг ёш тўйида айтган гаплари эсимга тушди. Мени отадаги бу каби ҳайратомуз, оддий

одамларга хос бўлмаган чуқур инсоний фазилатлари қайтакайта фикр юритишга ундаиди. Ҳаётга қарашлари, принциплари кўп томондан менга яқин бўлгани учунни, отани борлиғича кашф килиш билан бутун хаёлим банд эди!

Ота шу ёшда бўлса-да, фан янгиликларига, сўнгти техникаларга қизиқарди.

– Рейимберган, ерларни камида 8-10 йилда бир марта микропланировка (капитал текислаш) қилиш керак. Ҳозир лазерь билан ишлайдиган, компьютерларда бошқариладиган ер текисловчи машиналар чиқди. Шундан учтасини сотиб олдик, яна олмоқчимиз, – деб қолди. Мен қишлоқ хўжалиги бўйича инженер – механик бўлсам-да, бу ҳақда эшишмаган эканман. Шунинг учун индамасдан отани тинглашга мажбур эдим.

Лазерь нурлари даланинг паст-баландини узоқдан кўриб ўлчовини компьютерга беради, у эса машинани автоматик равишда бошқаради. Дехқончилик илмини отадек эгаллаган инсонларга бизда “Халқ Академиги” дейишади. От изини той босар деганларидек, Комилjon қишлоқ хўжалик фанлари номзоди, ҳозирги кунда у раислик билан бирга докторлик диссертацияси устида ҳам иш олиб бормоқда. Тўғриси илм билан тажрибани бирга кўшиб олиб бориш ўзининг яхши самарасини бериши керак. Унга Комилжонга бундай фойдали илмий-тадқиқий фаолиятида куч-ғайрат тилаймиз ва омад ёр бўлишини Аллоҳдан сўраб қоламиз.

Кўшни Гўрўғли туманидан ота билан узоқ йиллар ишлаган Худик оға Муродов ва Чўшиши оға Ўрозқиличевлар менинг яхши дўст отахонларим эдилар. Кўп йиллар туманда раҳбарлик лавозимларида ишлаган Ҳанифа Курбонова, Ўринбой Байрамов ва Мурод Худойбергановлар ота билан самарали мулоқотда бўлиб ишлаганларини яхши биламан. Улар билан ҳам яқин дўст эдик. Мурод Такаевич туманимиз ҳосил байрамига меҳмон бўлиб келганида, ёш йигит бўлса-да, тўйда йигилган бутун шовотликларга уни “иккала туман оқсоқоли” деб эълон қилганман. Ҳозир ҳам у билан тез-тез

учрашиб турамиз. Вилоят ва туманларда, шунингдек, хўжаликларда отанинг назари тушган шогирдларининг саноғи йўқ деса бўлади. Нафакат фаҳм-фаросатли, маърифатли ўғиллари, балки шогирдлари билан ҳам ота ўзига ҳаётлиги пайтидаёқ ҳайкал қўйиб кетди. Хўжаликка ўзи ишлаб турган даврда унинг номи қўйилиши ҳам бунинг яққол далилидир. Умрбокийлик деб шуни айтишса керак!

2010 йилнинг кузида отанинг уйига зиёрат қилиш учун бир ўзим туш пайтида кириб бордим. Ота хонасида тушлик қилиб ўтирган экан. Телевизор ишлаб турарди. Невараси Шавкат ҳар галгидек бобоси ёнида. Ота билан ҳол-аҳвол сўрашгач, Шавкатбекка яхши истаклар билдириб, дуолар қилдим. “Илоҳим, отанинг қариганда меҳри сингган, эртакеч бирдай ёнида бўлган Шавкатбек келажақда бобосидек буюк инсоний мавқе-мартабага эришсин!” Ота ўзининг севимли парҳез таоми товук тухумининг оқидан тайёрланган барак еб ўтирганини биринчи бор кўрдим. Биз узок сухбатлашдик. Ҳожи отамиз ўзининг ёшлиги ҳақида сўзлади. Айниқса, отаси тўғрисида гапириб:

— Рейимберган, бир армоним бор, у ҳам бўлса, отам ёшлигимизда эрта кетдилар, — деди. Бу ҳақда аввал ҳам айтиб берганлари эсимга тушди. Отанинг сўзини бўлмадим, чунки ёшлигидаёқ ота меҳрига тўймай қолиш бир умрга, ҳатто 90 ёшда ҳам юрагининг бир жойи жароҳат бўлиб қолаверишини яхши тушунган ҳолда эшита бошладим. У давом этарди:

— Отам ўн бир ёшымда қатағонга дуч келиб, қамалдилар. Онам билан ёлғиз қолдик. Отам күп ўтмасдан Ашхободда Олий суд хукми билан озод этилиб, тұғри Монокқа, оғайнилар олдига келибди. Кечаси билан “күраклар” қавми йиғилиб маслағат килибди. Оғайнилар: “Рұзматбой, озодликка чиққанинг яхши-ю, энді бу ёғига нима қылмоқчисан?”, деб сўрашибди. Отам эса: “Мен эртага болаларим олдига кетаман”, дебди. Шунда улар: “Рұзматбой,

агарда сен эртага болаларинг олдига қайтиб борсанг, барибир узоққа боролмайсан. Сени яна каматадилар”, деб дангал айтишибди. Кўпнинг маслаҳати шу бўлибди. Аммо отам қатъий туриб: “Мен Олий суд ҳукми билан озодликка чиқдим. Мени энди ҳеч ким ҳеч нарса қила олмайди”, деб ўз сўзида қолибди. “Начора, майли”, деб оғайнилар рози бўлишибди.

– Ўшанда, – деб давом этди ота, – отам оға-иниларининг, кўпчиликнинг маслаҳатига қулоқ тутиб, Монокда қолиб кетса бўларди. Шунда у Украинадек олис юртларга сургун қилиниб, ҳоки бегона тупрокларда хор бўлиб, қолиб кетмасмиди дея ўйланаман. Бу ўйлар менга мана неча йиллардан буён тинчлик бермасдан, юрагимда катта армон бўлиб қолмоқда. Афсуски, Рейимберган, дунёда армонизиз одамнинг ўзи бўлмас экан, – деди ота маҳзунлик билан.

Шу йиллар давомида онаси билан қанча қийинчиликларга дуч келганини, катта бўлиб Матёкуб Кўшжонов билан Чоржўй пединститутида ўкиб, ўқитувчи, кейинчалик мактаб директори вазифасида ишлаб юрганида колхоз раислигига таклиф қилишганини, раис бўлгандан кейин икки йил ичида пахта ҳосилдорлигининг 10-12 центнердан 30 центнерга кўтарилиганини ва шу йилнинг якунига кўра унга “Социалистик Мехнат Қаҳрамони” унвони берилганини сўзлаб берди. Сўнгра: “Кейинги воқеаларни ўзинг биласан”, деб кўшиб кўйдилар.

Суҳбат тамом бўлар-бўлмас кутилмагандан:

– Рейимберган, агар сенга тўй-маросимларга айтилса, кела оласанми? – деб сўрадилар.

– Саъдулла ота, нима деяпсиз ўзи, агарда танимда жоним бўлса, айтилса, албатта, келаман, – дедим бир оз ҳаяжонланиб.

– Энди бўлмаса, сизга яна бир сўровим бор, – дедилар мени “сиз”лаб, – у ҳам бўлса, буни мен кўпдан бери ўйлаб юрибман, аввалги келганларингда ҳам айтмоқчи эдим, тўғри келмади.

Шу яқин кунлардами, ойлардами, ўзим сизга айтаман, “кўраклар” қавмини, қариндошларниң ҳаммасини бир жойга тұплаб берсангиз, улар билан бир учрашиб гаплашмоқчи эдим, – дедилар. Негадир хўрсиниб, бир пас индамай қолдилар.

– Бу ишда сизга Қадамбой ҳам ёрдам берар, – деб қўшиб қўйдилар. Мен отанинг кўп вақтини олиб, анча чарчаганини сезиб:

– Саъдулла ота, анчадан буён суҳбатлашиб, сизни толиқтириб қўйдим. Сиз энди бироз дам олинг, рухсат берсангиз, мен қайтаман,-дедим. Шунда нималарни дир отага айтишим керагу, айтолмай қолгандай бўлиб, унинг чап ён томонида жимгина ўтирибман. Отага шундай тикилсам, бир фикр кўнглимдан “ялт” этиб ўтгандай бўлиб, бирдан:

– Саъдулла ота, сизнинг шу ўтиришингизни кўриб бир нарса ёдимга тушди, – дедим. Ота эгнига оқ кўйлак ва лозим кийган, бошига эса оппоқ дўппи, елкаси сал чиқиб, бели бироз букчайган эди. Дам олишга чиққанидан кейинги даврда кўп табиб ва шифокорларда даволаниб, гўё яшаргандай, нафас олишлари равон бўлиб, юзларидан нур таралаётганини ҳис қилдим.

– Сизнинг шу ўтиришингиз худди бир авлиёларга ўхшайди, – деб юборганимни билмай қолдим. Ота эса бунга жавобан янада чехралари очилиб, бу ҳазилми ё чин эканини билмасдан кулиб юбордилар. Бу кўтаринкиликни кўриб, мен кўпдан ўйлаб юрган яна бир саволни беришга жазм қилдим:

– Саъдулла ота, мана, ишни Комилжонга, Рўзимбойларга топширганингизга анча бўлди. Бугун фарзандларингиздан кўнглингиз тўқми? – дедим худди отанинг тенгдош дўстидай бўлиб.

– Худога шукур, кўнглим тўқ, Рейимберган, – дедилар ота. Шу билан биз хайрлашдик.

Энди ўйлаб кўрсам, бу ота билан охирги учрашув, ота томонидан менга айтилган охирги сўз эди. Қариндошлар билан учрапша олмай қолгани отанинг иккинчи армони,

иккинчи камчил томони бўлиб қолди. Шунинг учун ҳам бу дунёни “Бири кам дунё” дейдилар. Бу икки оғиз сўзда қанча маъно мушассам.

Менимча, бу ҳикматнинг маъноси – ҳар бир инсон дунёда гўё армонимиздек яшаса ҳам, унинг бир томонида етар-етишмовчилик, йўқотишлар бўлиши табиий ҳол, деганидир. Бирор ота-онасини, кимдир ўғил-қизини, бирор яна бошқа яқинини йўқотади. Аммо қандай бўлмасин, бу дунёда яшаш керак! Ҳаёт ширин, бу дунёда ҳамма нарса етарли, борингки, ейман, ичаман, яхши яшайман деган кишига дунёнинг камчилиги йўқ! “Бекам дунё” дегани шу бўлса керак. Бу турфа олам ҳамиша ҳаракатда, айланишда. Шунга монанд инсон ҳам доимо ҳаракатда бўлмоғи керак. Бу – ҳаёт қонуни!

Ота дунёнинг ушбу фалсафасини тўла англаган табаррук инсон бўлгани учун ҳам ҳаётдаги барча қийинчилик, йўқотишларни ўзининг тиниб-тинчимас ҳаракати, ақл-заковати, меҳнати билан енгиб ўтолган ва шулар сабабли ўзига ҳамда халқига, фарзандларига бекам ва фаравон ажиг бир дунё яратган, десам тўғри бўлар!

2011 йил 20 январь куни ота оламдан ўтгани ҳақида машъум хабарни эшийтдим. Йўлдош оға ва Қадамбой билан шу куннинг ўзида отаникига етиб бордик, ўғилларига, қариндошларига, ҳамма таниш-билишларга таъзия билдиридик. Уйга кириб бироз ҳол-аҳвол сўрашгандан кейин отани зиёрат килишга шошилдик. Ота ўзининг хонасида абадий уйқуга кетган ҳолда усти – юзларига оқ мато ёпилиб ётар эди. Мен аста отанинг юзларини очдим, коз-кўзларини силадим, кейин эса эгилиб пешанасидан охиста ўпдим, миҷжаларимда ёш айланиб, хўрсиндим. Чунки уни вафот этади деб ҳеч ким ўйламас эди. Юз ёшли тўйларини ўтказиш ҳакида ўйлар эдик. Унинг кейинги пайтларда яхши даволаниб, соғлиги ҳам анча яхшиланганини юқорида айтганимдек гувоҳи бўлган эдим. Үлим вақти-соати етганда

ҳамма учун барибир ҳак-да! Аллоҳ назар согани учун ҳам ул зотга осон ўлимни раво кўрганига хаёлимда имон келтирдим. Шунчалик ҳеч кимга, фарзандларига озори тегмасдан Аллоҳнинг сийлови ва марҳаматига сазовор бўлишдан ҳар бир бандаси учун зиёда иш борми ўзи бу ёлғончи дунёда?! Одамнинг кўлидан нима ҳам келади? Ҳамманинг ҳам эртами-кечми охири шу-да – манзил бир. Бизнинг: “Аллоҳ у кишини ўз раҳматига олсин”, деб дуо килишдан бошқа иложимиз йўқ. Хонадан чиқишида отанинг нуроний чехраси акс эттирилган портрет ва саноги йўқ орден-медалларга кўзимиз тушди.

Эрталабдан отанинг эшиги олдида жанозага тайёргарлик тарафдулари бошланди. Ташқарида эса оппок қор ёғмоқда. Назаримизда, Саъдулла отанинг руҳи покларига гўё Аллоҳнинг раҳматлари ёғилаётгандек эди. Дошўғизлик истеъодоли шоир Абдулвоҳид Сайдматов “Саъдулла ота марсияси”да шундай ёзади:

*Ёгдир. Ҳудо, ёгдир кўкнинг раҳматини,
Кўнгил чекар бугун ҳижрон заҳматини,
Ёлғиз қилиб минг одамнинг меҳнатини,
Бу ҳаётни қилиб тўқсон қадам бугун,
Кетиб борар шундай улуғ одам бугун.*

*Куёш турмай турарди у ҳар эрталаб,
Ўз олдига кўйган эди шундай талаб,
Умр бўйи кўтарди эл гамин елкалаб.
Борми энди унинг каби ҳотам бугун,
Кетиб борар шундай улуғ одам бугун.*

*Тўртта ўғил тутган тобут дастасини,
Қалб ииглайди, чиқармайди дард сасини,
Бир чеккага суяб қўяр ҳассасини,
Катта бир юрт дейди, қани отам бугун,
Кетиб борар шундай улуғ одам бугун.*

*Бўлмаганни тўқсон йиллаб бўлдирдиё,
Бор айлади, ҳатто ўқдан йўндиридиё,
От миндириб, эл қозонин тўлдирдиё,
Қайда энди шундай яхизодам бугун,
Кетиб борар шундай яхии одам бугун.*

*Биз-ку бунда орқасидан қараб қолдик,
Бир хўрсиниш, бир кўзёшга яраб қолдик,
Жаннатдан жой, Яратгандан сўраб қолдик,
Ол юзларга солиб мотами, мотами бугун ,
Кетиб борар, шундай улуг одам бугун.*

*Ёгдир Худо, ёгдир само раҳматини,
Кўнгши чекар бугун ҳижрон заҳматини,
Минг одамнинг қиломаган меҳнатини,
Йўлга чиқди қилган битта одам бугун,
Катта элга мотами бугун, мотами бугун.*

Жанозага Ашхободдан, вилоятлардан, Ўзбекистондан, Қорақалпоғистондан отани биладиган кўплаб инсонлар, шунингдек, ҳамқишлоқлари келишган эди. Жаноза майдонига одам сиғмай кетди. Жаноза маросими тугагач, кўпчилик ота изидан – бирор машинада, бирор пиёда – қабристон томон йўлга тушди. Отани қабрга жойлаштиргач, имом тиловат қилди. Сўнгра ҳамма дуога кўл кўтаргач, ўрнидан туришди. Бирор ҳамманинг юрагида бир нарса етишмагандай эди. Шундай пайтда, Туркманистон Ёшуллилар Маслаҳати раисининг ўринбосари, Саъдулла отанинг кўп йиллик дўсти Мурод Гарриев олдинга чиқиб, марҳум номига илиқ фикрлар айтди. Шундан кейин ота хақида бошқалар ҳам жуда кўп яхши гаплар айтишди; менга ҳам сўз берилди:

– Ота туркман ва ўзбек ҳалқларининг отаси бўлиб, икки ҳалқ ўртасидаги дўстлик кўпригининг устунларидан бири

эди. Уни ўлим орамиздан эрта олиб кетди. Ота билан охирги марта учрашганимизда: “Саъдулла ота, мана дам олишга чиққанингизга анча бўлди. Энди бугунга келиб фарзандларингиздан, уларнинг ишидан кўнглингиз тўқми?”, деб сўраганимда, “фарзандларимдан кўнглим тўқ”, деб жавоб берганди.

Ҳаммадан кўнгли тўқ бўлиб мангу уйкуга кетдилар. Алвидо, алвидо, алвидо, Саъдулла ота, қабрингизда тинч ётинг. Бизлар сиздан розимиз, сиз ҳам рози бўлинг, қабрингиз – нур, жойингиз жаннатда бўлгай, илоҳим!” – деб сўзимни тамомладим. Бу эса, ўз навбатида, юқорида айтилган кемтикни тўлдиргандек бўлди. Тўғри-да, шундай буюқ зот, авлиёсифат инсон номига бир сўз айтмай кетиб қолиш кўнгилга сифмас эди. Ота уйига қайтиб, кечки фотиҳаларини ўтказиш ва шу куни қолиб, эртага учи (вафот этганига уч кун тўлиш маросими)ни ўтказиб, сўнг қайтишимизни Рўзимбойга айтдик. Бу ҳаммага маъқул тушди. Эртасига эса соат иккиларгача ўтириб, маросим тугагач, Йўлдош оға, Қадамбой, мен ота номига дуо-фотиҳа қилиб, фарзандларига кўнгиллик бериб, ундан кейин уйга қайтдик.

Отанинг “қирқ тўлди” маросими унинг катта ўғли Рўзимбойнинг уйида ва ўз уйида бўлиб ўтди. Маросимга Туркманистон Президенти Гурbonгули Бердимуҳамедов бошчилигида бир гурух давлат раҳбарлари келиши тараддуди кўрилмоқда эди. Бу, албатта, бир кутилмаган воқеа бўлиб, Саъдулла ота билан муҳтарам Президент Г.Бердимуҳамедовнинг бир-бирларига бўлган хурмат-эҳтиромлари бекиёс эканидан далолат эди. Зоро, бу ҳолат отанинг Президент жаноблари учун кадри нақадар юксаклигини кўрсатарди. Муҳтарам Президент жаноблари бу одамийлик ташрифи чогида отанинг ўғилларига таъзия билдириди. Шундан сўнг муҳтарам имом отанинг руҳи покига тиловат қилди. Ота ҳақида яхши гаплар айтилди. Президент

жаноблари кишлоқ маданият Саройи олдида отанинг хайкалини ўрнатишга топшириқ берган ва бошка ташриф тафсилотларини Рўзимбой бизларга гапириб бергач, қабристонга ота қабрини зиёрат қилгани бордик. Отанинг руҳи покларига оят ўқиб, дуога кўл кўтардик. Қабр оқ мармардан бежирим қилиб, қурилиш ишлари ниҳоясига етган эди. Биз буни, албатта, ота қалбининг оқлиги, бегуборлиги рамзи эканига йўйдик. Қабр устида гумбазли мақбара қурилса, айни муддао бўларди, деган фикр хаёлимдан ўтди. Ота ҳакида ўйларим тобора ойдинлашиб борарди ва ниҳоят, унинг “юз тўлди” маросимидан хабар топгач, бир кун олдин уйига етиб бордик. Маросимга жуда кўп одам келди, отанинг номига дуолар қилинди, фарзандларига яхши тилаклар билдирилди. Қабристонга зиёратга борганимизда, ўйлаганимдек, ота қабри устида мақбара қурилаётганини кўриб фикрларим янада ойдинлашди. Отанинг охири обод, Аллоҳнинг назари тушган авлиётабиат ҳазрати инсонлиги ҳакида ўйларим маромига етмоқда эди.

Кейинги йилларда ота ҳаёт даврида ва оламдан ўтгандан сўнгги воқеалар кўз олдимиздан бир-бир ўтарди. Айниқса, у 90 ёшда дам олишга чиққанидан кейин ҳафтада бир марта ўз машинасида кунига 300-400 километр йўл босиб, далаларни айланиб, камчиликларни бартараф этиш мақсадида мутасадди раҳбарлар билан йиғилиш ўtkазиб, тегишли топширикларни бериши ва, ниҳоят, натижасини бир ҳафтадан сўнг бориб назорат қилишларига нима дейсиз?!

Шуларни ўйлаб юриб менда бир савол туғилди: ота бу куч-кудратни қаердан олдийкин? Ёки муҳтарам Президентнинг ул зотга бўлган хурмат-иззатими, ёки ўз халқига, элига бўлган меҳр-мухабbat туфайлими, ёки шу заминда яшаб ўтган улуғ авлиёлар қўллаб-кувватлаганиданми? Буюк инсонлар ўзларининг ҳалол меҳнатлари, салоҳиятлари, чин инсоний фазилатлари билан жаҳонга машҳур бўлганлар. Баҳовиддин Нақшбандий:

“Қалбинг Аллоҳда, қўлинг меҳнатда бўлсин!”, деса, ат-Термизий ҳазратлари: “Қалбинг Аллоҳда, аклу ҳушиңг илмда бўлсин!”, деганлар. Булар ҳакида ўйласам, ўз саволимга жавоб топгандай бўламан. Ота ҳакиқатан ҳам афсонавий авлиётабиат инсон эди!

Ҳакиқатан ҳам Туркманистон Қаҳрамони Саъдулла ота Рўзматов ўзининг мазмунли умри давомида келгуси авлодлар учун унтилмас из колдирган ажойиб инсондир. У ўзининг машақкатли болалигидан бошлаб умри охиригача ҳаёт йўлини акс эттирадиган “Мустақиллик – умрим равшанлиги” деган йирик хотиралар китобининг шунингдек, ўз иш тажрибаси ҳакида ҳикоя қилувчи “Шонли 60 йил”, “Сифат ва самарадорлик – бош мезон”, “Ер эгаси” каби китобларнинг ҳам муаллифиdir.

Саъдулла ҳожи отанинг ҳаёти, унинг ҳалоллик билан ўтган умри, килган иплари ва инсоний фазилатлари, раҳбарлик услублари ҳакида очерклар, мадхиялар, достон ва роман, кисқа метражли, хужжатли фильмлар яратилди.

Ота ҳакида ҳикоя қилувчи X.Мелаев ва Р.Собировнинг “Ёрмиш чироқлари” кинофильми, “Туркментелефильм” ижодий ходимлари томонидан яратилган видеофильмлар, Г.Муродов, А.Пайтиқ, А.Бобоевларнинг “Замонамиз бободехкони” рисоласи, Қ.Урозкулиевнинг “Мазмунли умр манзиллари” очерки, Г.Муродов, Г.А.Башаровларнинг “Ишлаб чиқаришнинг юксак маданияти – ютуқлар гаровидир” китоби, Р.Собировнинг “Бободехқон” романи, М.Кўшжоповнинг “Карвонбоши” очерки, О.Тўраевнинг “Ёрмиш дарғаси”, “Саъдулла отанинг сабоқлари”, “Табаррук инсон” китоблари, Абдулвоҳид Сайдматовнинг “Ота”достони ва бошка бир қанча шеърий асаллар фикримизнинг исботидир.

Келгусида бу ишлар, шубҳасиз, яна-да давом эттирилади. Отанинг кишлоқ хўжалиги ва бошка соҳалардаги қимматли

иш тажрибалари мукаммал ўрганилиб, йирик-йирик монографиялар яратилишига ишонамиз.

Шу ўринда хурматли Президентимиз Ислом Каримовнинг: “Ўтмишда кўп буюк инсонлар, авлиёлар ўтган ва бундан кейин ҳам шундай инсонлар дунёга келаверади”, деган фикрлари Саъдулла ҳожи отага ҳам тааллуклидир.

Мана, отанинг дунёдан ўтганига ҳам анча вақт бўлди. Унинг ҳаётлик даврида ҳеч қачон эътибордан сокит килмаган улуғ ишларидан бири мархумларни қадрлаш эди. Шу сабабдан ҳам ота “Иморат бобо” қабристони ёнидан янги лойиҳада қабристон барпо этишдек савобли ишга бош-кош бўлгандилар. Бу обод масканда мангу оромда ётган турмуш ўртоғи Ӯғилжон опа, ҳаётдан эрта кетган қизлари Энагул ва бошқа яқинлари қабрларини оқ мармардан тиклатиб, атрофларини гулзор килган отанинг ўзи бугун уларнинг каторида.

2011 йилнинг 19 ноябрида отанинг ўғилларидан ота хотирасига маросим ўтказаётгани хабарини олдигу дарров етиб бордик. “Иморат бобо” масжиди ёнига тумонат одам йигилган. Рўзимбой, Комилжон, Ӯмирбой, Шухратлар худди оталари сингари ҳалқини йиғиб, мархумлар хотирасига худойи қилаётган эканлар. Одамлар оқими қабристон ичкарисига томон оқмоқда. Ўз навбатимиз билан биз ҳам ота ётган куттуғ манзил пойига етиб бордик. Бу ерда оппок мармардан тикланган маҳобатли мақбарага кўзим тушиб, тўлкинланиб кетдим. Бу иморат олис Украинадан отасининг ҳокини келтириб, мана шундай улугвор мақбарага жойлаш ҳақидаги отанинг армонларини ўғиллари қисман бўлса ҳам амалга оширганидан бир дарак эди. Бино ичидан корининг ширали овозда килган тиловати, бутун бир ҳалқнинг дуои фотиҳаси бу ибрат масканга яна бир савоб кўшгандек бўлди. Мақбаранинг чап тарафида кичкина майдонча килинган бўлиб, унда отанинг бронздан ишланган бюсти тикланган, орнаментга эса отанинг улуғ хизматлари эвазига олган орден

ва медаллари шакли туширилган. Бюстдан олдинрокда мўъжазгина ёдгорлик тоши ўрнатилган бўлиб, унга ота умр мазмунининг баёни бўлиб янгровчи, у бир умр амал килиб келган синмас қоида тимсоли Бобур Мирзонинг ушбу тўртлиги ўйиб ёзилган:

**Ҳар кимки вафо қиласа, вафо топгусидир,
Ҳар кимки жафо қиласа, жафо топгусидир.
Яхши киши кўрмагай ёмонлик ҳаргиз,
Ҳар кимки ёмон бўлса, жазо топгусидир.**

Муқаддас кадамжони зиёрат этиб, орқага қайтарканман, ўзимни кўнглимга илохий нур куйилган каби сездим. Аминманки, бу ҳолат биргина менда эмас, бутун эл кўнглида намоён бўлган. Бу – нурафшон умрнинг ўз халқи қалбига мангу кўчиши эди.

**2011 йил, сентябрь ноябрь.
Хоразм Дошўғиз**



Саодатли дамлар



Саъдулла Рўзметов оила аъзолари даврасида



Саъдулла ота китоб музалифи Раҳим
Тоҳиров билан



Табаррук ёш табриги



Саъдулла Рўзметов дўстлари - ёзувчи Р.
Собиров ва академик М. Қўшжонов билан



Ҳар кимки вафо қилса...

RAHIM TOHIROV

**NURAFSHON
UMR**



UDK:821. 512. 164-4

KBK 66.3 (5Ў) 6

T 74

Tohirov, Rahim. Nurafshon umr: Turkmanistonlik Sa'dulla Ro'zmatov haqida xotiralar / H. Tohirov; - T. "Muharrir" nashriyoti, 2012 – 64 b.

KBK 86.3 (5Ў) 6

Xorazmlik Rahim Tohirov uzoq yillar turli xo'jalik va tashkilotlarda rahbar lavozimlarida ishlab, obro'-e'tibor topgan insonlardan biridir. Mehnat faoliyati davrida ustozlari o'gitiga amal etdi; natijada ulkan yutuqlarga erishdi.

Qo'lingizdagি risolada muallif faqat Turkmanistonda emas, balki O'zbekistonda ham o'zining halolligi, odamiyligi, rahbarlik va tashkilotchilik iste'dodi bilan tanilgan atoqli rais, Mehnat Qahramoni, Turkmaniston Qahramoni, Turkmanistonning Hurmatli El Oqsoqoli Sa'dulla aka Ro'zmatov haqidagi xotiralarini bayon qiladi.

Risola siz aziz kitobxonlarga manzur bo'ladi, degan umiddamiz.

Taqrizchi:

Bahodir Karimov,
filologiya fanlari nomzodi

ISBN 998-9943-25-068-0 © «Muharrir» nashriyoti, Toshkent, 2012y.

RAHIM TOHIROV

NURAFSHON UMR

(Sa'dulla Ro'zmatov haqida xotiralar)



Buyuk insonlar bu yorug‘ olamdan o‘tgandan keyin yillar o‘tishi bilan ular qilgan ezgu amallar tobora oydinlashib, to‘laligicha yangi-yangi ma‘no va mazmun, mohiyat kasb etib boraveradi. Zero, iste’dodli shoir Maqsud Shayxzoda aytganidek:

Umrlar bo‘ladiki,

Tirigida o‘likdir.

Umrlar bo‘ladiki,

Mangulikka tirikdir.

Tiriklik chog‘ida o‘zining insoniy qadr-qimmati, halol mehnati, tashabbuskorligi-yu tadbirkorligi bilan minglab kishilarga ibrat bo‘lib, o‘ziga haykal yarata olgan buyuk insonlarning hayoti kelgusi avlodlar xotirasida abadiy yashaydi. Ana shunday tabarruk insonlardan biri Mehnat Qahramoni, Turkmaniston Qahramoni, Turkmanistonning Hurmatli El Oqsoqoli, umrining 53 yilini o‘zi tug‘ilib o‘sgan jamao xo‘jaligida raislik qilib o‘tgan mashhur bobodehqon, tashabbuskor va qishloq xo‘jalik sohasida o‘ziga xos maktab yarata olgan ajoyib inson Sa‘dulla ota Ro‘zmatovdir.

Sa‘dulla ota 92 yil umr ko‘rdi. Uni faqat Turkmanistonda emas, balki Markaziy Osiyo mintaqasida, xususan, qo‘shni O‘zbekistonda ham ko‘pchilik yaxshi tanir edi. Uning ibratli ish tajribasini o‘rganib, o‘zlarining xo‘jaliklarida qo‘llashga harakat qilardi.

Mening Sa‘dulla ota bilan tanishligim tarixi uzoq davrga borib taqaladi. Yosh paytlarim ota-onamdan Shovot tumanining Monoq qishlog‘idagi “ko‘raklar” qavmiga tegishli qarindoshimiz – Dosho‘g‘iz shahrida yashovchi Xolmat aka haqida, “Yormish” qishlog‘ida yashayotgan qarindoshimizdan esa Sa‘dulla aka haqida ilk bor eshitganman.

Urushdan keyingi yillarda Xolmat ota shahardagi non zavodida direktor bo‘lib ishlardi. Ocharchilik yillarda u butun

Monoq ahli hamda qarindoshlarni non va un mahsulotlari bilan ta'minlab turganini odamlar haligacha yaxshi eslashadi.

Biz o'sha paytlari bozor kunlari Dosho'g'iz shahriga borib, Xolmat otaning uyida bir kecha mehmon bo'lib kelardik. Bayram ismli o'g'li bilan birga o'ynaganlarimni hamon eslayman. Sa'dulla akalarning uylari uzoqroqda bo'lgani uchunmi, siyrakroq bordi-keldi qillardik. O'tgan asrning 60-yillarida institutni bitirib, Shovot tuman "Selxoztexnika" sida, keyin tuman qishloq xo'jaligi boshqarmasida boshliq paytlarimda tajriba almashish uchun Sa'dulla akaning kolxoziда chigit ekishga bag'ishlangan seminarlarda qatnashib, yaqindan tanishganman. O'sha paytlarda O'rinboy Bayramov Dosho'g'iz tumani qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i edi, 70-yillarda men Shovot tumanida, O'rinboy aka qo'shni Dosho'g'iz tumanida rahbar bo'lib ishlagan paytlarimiz bordi-keldilar ancha yaxshi yo'lga qo'yildi. U kishi bilan qalin do'st edik, chehrasi ochiq, hammaga mehribon ajoyib inson edi. Olloh u kishidan rozi bo'lsin!

Sa'dulla aka bilan o'sha yillari tez-tez xabarlashib, ishlar yuzasidan gaplashib turardik. U kishi bizning Shovot tumanida olib borilayotgan obodonlashtirish va qurilish ishlarimiz to'g'risida hammaga faxrlanib gapirardi. Hatto bir kuni Dosho'g'iz viloyatining birinchi rahbari Bayri Otayevga meni maqtab gapirgan ekan. Shundan keyin men Bayri og'a bilan do'stlashib qolgan edim. Bunga yana bir sabab: Bayri Otayev va Xorazm viloyatining rahbari Madiyor Xudoyberganovlar qalin do'st bo'lib, chegarada ham turli marosimlarda tez-tez uchrashib turar edilar. Sa'dulla ota Bayri og'ani juda qadrlar, Bayri og'aning ham Sa'dulla otaga hurmati nihoyatda baland edi. Ular ko'p yillar o'zaro izzat-hurmatda – og'zibir bo'lib ishladilar.

Oxirgi marta Sa'dulla ota va bir guruh xorazmliklar bilan Bayri og'aning janozasiga qatnashib, u kishining yaqinlaridan ko'ngil so'radik. Olloh u kishidan rozi bo'lsin!

– Janozada Bayri og'ani qishloqdagi uyidan – somon suvoqli eskigina bir hovlidan chiqardilar. Bundan hammamiz Bayri

og'anining naqadar kamtarin inson va rahbar bo'lganidan hayratga tushgan edik.

Marosimda men ikkinchi maria Turkmanistonning o'sha paytdagi katta rahbari Muhammadnazar G'afurovni uchratib, u bilan quchoqlashib ko'rishdim va unga ta'ziya bildirdim. Muhammadnazar G'afurov haqida gap ketganda, shuni aytishni joiz deb bilaman: O'sha paytlarda Sharof Rashidov viloyat rahbari Madiyor Xudoyberganov bilan Shovot tumaniga kelgan edilar. Ular tumandagi Maxtumquli nomidagi jamoa xo'jaligida, ya'ni Turkmanistonning Dosho'g'iz viloyati bilan chegaradosh qishloqda qurilgan ikki qavatli bolalar bog'chasining ochilish marosimida ishtirok etgan edilar. Mehmonlarni kuzatayotganimda Madiyor aka menga: "Rahimboy, sen ertaga tushga qarab, mabodo biz kechikadigan bo'lsak, chegarada G'afurovni o'zing kutib olasan. Chegarada Sharof Rashidov va G'afurov Nurjon Botir bog'ida uchrashadilar", deb meni orqaga qaytarib yubordi. Men darrov Nurjon Botir bog'iga borib uchrashuvni tashkil qilish bo'yicha tegishli rahbarlarni yig'ib, topshiriqlar berdim.

Ertasiga soat 12 larda G'afurovni kutib oldim. Nurjon Botir dargohi uchrashuvga bir kechada tayyorlangan edi, yuz metrlab yangi yo'laklar tuzatilgandi.

Men G'afurovni kutib olarkanman:

— Yoshulli, Sharof Rashidovich bugun ertalab Tuyamo'yin suv ombori qurilishiga ketgan, sal kechikishi mumkin, — deb yangi tuzatilgan yo'lakka taklif etdim. G'afurov Rashidov kelganicha kutib turishini aytdi. Yarim soatdan keyin Rashidov va Xudoyberganovlar yetib keldi; G'afurov bilan juda iliq so'rashishdi hamda dasturxon atrofiga o'tirishdi. Suhbatdan bildimki, o'sha yili Muhammadnazar G'afurov 60 yoshga to'lgan ekan. Rashidov uni qutlash uchun Ashxobodga bora olmay qolgani sababli uchrashuv tashkil qilingan ekan.

Sharof Rashidov Turkmaniston rahbari Muhammadnazar G'afurovni 60 yoshga to'lgani munosabati bilan samimiy tabrikladi va boshiga telpak, egniga zar chopon kiygizib qutladi.

Keyin tushlik vaqtida do'stona qizg'in suhbat bo'ldi. O'z navbatida G'afurov qabul uchun minnatdorchilik bildirib, qo'shni Turkmanistonni rivojlantirishda Sharof Rashidov ham Moskva orqali ko'p masalalarni hal qilishda yordam berayotganini aytib o'tdi. Shu asnoda uchrashuv yakuniga yetdi. Ikki qo'shni Respublika rahbarlari iliq xayrashdi.

Shuningdek, Jizzaxga ko'p yillar Qozog'istonning birinchi rahbari bo'lib ishlagan Dinmuhammad Kunayev va hozirgi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovlar ham tashrif buyurishgan edi. Ko'pdan beri taniganim sababli menga G'afurovga hamrohlik qilish topshirilgan edi.

U kunlar umrimning oxirigacha xotiramda saqlanib qoladi.

1974 yilda shovotliklar paxta yetishtirish bo'yicha katta g'alabaga erishib, davlatga 50 ming tonna "oq oltin" topshirdilar. Shu kuni Xorazm televideniyesida bu mehnat g'alabamizga bag'ishlangan ko'rsatuvda qatnashishni iltimos etib, Sa'dulla otaga qo'ng'iroq qildim. Ota bu xushxabar bilan meni tabriklab, xursand bo'ldilar va Urganchga, albatta, yetib kelishini aytdilar. Shu kuni ota biz bilan birga bo'lib, televideniye orqali tabrik so'zları aytib, yaxshi tilaklar bildirdilar. Bular hammasi shunchalik samimiy va tabiiy ediki, buni Sa'dulla otaning o'z ota-bobolari eliga bo'lgan mehr-muhabbati, dil izhori desa bo'ladi. Bu tabrik va ezgu tilaklar xalqimiz qalbini quvonchlarga, faxr-iftixorga to'ldirdi. Keyingi 30-35 yil davomida otadan ko'p narsalarni o'rgandim. Sa'dulla otaning xorazmliklarga, xususan, shovotliklarga hurmati baland edi. Ayniqsa, yosh rahbar hamda qarindosh sifatida menga otaning e'tibori katta bo'lganini doim sezib turardim. Men ham ul zotni otamdek ko'rardim. "Reyimboy" desa, og'zidan bol tomardi. Ota o'ta kamtarin, kamso'z edilar. To'y, marosimlarga xabar bersangiz, har qanday sharoitda ham kelib qatnashardilar. Ammo bizlar ko'p hollarda u

kishini bezovta qilmaslikka harakat qillardik. O'g'illarim to'yalarida, akam va o'g'limning marosimlarida qatnashib, mening yaxshi-yomon kunlarimda ko'nglimni ko'targanlar. Sog'ligi bo'yicha Urganchdagi shifokorlarda davolanar edilar. Ular ham otani nihoyatda hurmat qilar edi. Umuman, tevarak-atrofdagilarga o'ta e'tiborli, sinchkov bo'lganlar, mayda-chuydagacha e'tibor berardi. Hayotning ikir-chikirlarini to'la qamrab olgan ziyoli, ham faylasuf, ham bobodehqon, ham chorvador va nihoyat katta quruvchi edilar. Me'mor va tabiat shaydosи, yuksak madaniyatli davlat va jamoat arbobi kabi xislatlari bilan O'zbekiston va Turkmaniston xalqi hamda rahbarlari hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lgan baxtli insonlarning biri edi.

Agar Komiljon Otaniyozov o'zbek va turkman xalqlari do'stligi ko'prigining O'zbekistondagi ustuni bo'lgan desak, Sa'dulla Ro'zmatov – hoji otamiz ham bu ko'priknинг Turkmanistondagi mustahkam ustuni edi va bundan keyin ham shunday bo'lib qolaveradi.

80-yillarning yoz oylaridan birida Sa'dulla otaga: – Sizning oldingizga ertalab soat 9 larda Shovot tumani va xo'jalik rahbarlarini ishlaringizni o'rghanish uchun olib bormoqchiman, – deb qo'ng'iroq qildim. Sa'dulla ota taklifimini xursand bo'lib qabul etdi.

Ertalabdan tushgacha Sa'dulla ota boshchiligidagi dalalarda olib borilayotgan ishlari bilan tanishdik. G'o'zalarning egati 90 sm. kenglikda ekilgan edi. Barcha paxtachilik brigadalarida "Belarus" traktorlari ishlab turardi. G'o'za paykallari qondirib sug'orilganga guvoh bo'ldik.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligi ishlari kompleks mexanizatsiya asosida tashkil qilinib, bu yerda aholini og'ir qo'il mehnatidan ozod etish siyosati olib borilardi.

Tushda kolxozi mehmonxonasida shovotliklar uchun katta ziyoft berildi. Mehmonxona atrofi katta boqqa aylantirilgan, oldida hovuz, tevarak-atroflari gujum daraxtlari bilan o'rab

olingen edi. Yon tomondan esa yuzlab gujumlar ekilgan maskanni ko'rib, qalbimiz daryodek jo'sh urdi. Tushlikdan keyin kolxozi chorvachilik fermasiga bordik. Chorva fermasi zamonaviy molxonalaru mustahkam yem-xashak bazasi kompleks mexanizatsiyaga asoslangan edi. Bularning hammasi bizlarda juda katta taassurot qoldirdi. Kelgusi ishlarni rejalahtirib olish uchun bizga katta yordam berdi.

Esimda: 1983 yil kuz oylarining birida Sa'dulla ota qo'ng'iroq qilib qoldi, salomlashdik, "Rahimbergan, Urganchdan qaytishda Shovot tumanidagi ishlarni ko'rib quvondim. Temir yo'l ustida katta ko'pri, Shovot kanali bo'yida madaniyat saroyi, ma'muriy binolar qurilishini boshlabsizlar, odamlardan ham ko'p yaxshi gaplarni eshitdim. Madaniyat va istirohat bog'i ko'zga ko'rinish qolibdi", deb ishlarimga omad tilab, yaxshi istaklar bildirdi. Men ham adab bilan rahmat ayтиб, sog'lik-omonlik tiladim.

1985 yildan Qo'shko'pir tumaniga o'tib ishlay boshladim. Tumanda o'nlab eskirib qolgan maktablar bor edi. Tuman "xalq hashari" yo'li bilan ushbu maktablarni qisqa muddatlarda qurib bitkazish tashabbusi bilan chiqdi. G'ozovot qishlog'ida bir eski maktab binosi loyiha asosida 1 iyunda qurilishi boshlanib, uch oyda 1 sentyabrgacha qurib bitkazildi.

Shu maktab binosining ochilishiga ikki Respublika rahbarlari qatnashdi.

Maktab jamoasi, Qo'shko'pir tumani ahli .yuksak martabali mehmonlarni qizg'in kutib oldi. Ular maktab binosi, o'quv xonalarini ko'zdan kechirib, bu qurilishga yuqori baho berib, uchrashuv qatnashchilari, qishloq ahli va quruvchilarga o'z minnatdorchiliklarini bildirishdi. Yuqori martabali mehmonlarni shu davrda Xorazm viloyati rahbari bo'lib ishlagan M.Mirqosimov boshlab kelgan edi.

Ular o'sha kuni Qo'shko'pir tumanidan keyin Turkmanistonning Taxta tumani orqali Sa'dulla ota xo'jaligiga ham borishdi.

Yaqinda Sa'dulla ota vafotidan keyin Dosho'g'izga borganimda uning to'ng'ich o'g'li Ro'zimboy bilan xo'jalikning yangidan tashkil qilingan tarix muzeyida o'zimning o'sha marosimda mehmonlar bilan tushgan ikkita suratimni ko'rib qoldim. Ro'zimboy ulardan birini menga berib yubordi. Sa'dulla otaning bu suratlarni 24 yildan beri saqlab qo'ygani meni hayratga soldi.

1988 yilda xo'jalikda yangi qurilgan madaniyat Saroyining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Bu marosimda ikki qo'shni viloyat va tuman rahbarlari ishtirok qildi. Bu kun hayotimda ajoyib sanalardan biri bo'lib xotiramda abadiy qolsa kerak.

Katta bayramga aylangan bu tadbir qo'shni ikki viloyat xalqi rahbarlari o'rtaсидаги do'stlik va bordi-keldilarning tarixida yorqin sahifalardan biri bo'lib saqlanib qoladi.

Ana shunday ajoyib marosimlardan yana birida - Sa'dulla ota rais bo'lgan kolxoz-agrofirma tashkil topganining shonli 60 yillik tantanalarida ham ishtirok etganman. 1991 yilning 10 fevralida qishloqda bo'lib o'tgan mingga yaqin ashxobodlik, xorazmlik va qoraqalpog'istonlik mehmonlar qatnashgan bu marosim tarix sahifalaridan o'chmasa kerak. O'shanda Xorazm viloyati rahbari G'ayrat Masharipov, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, filologiya fanlari doktori Matyoqub Qo'shjonovlar nutq so'zlab, o'zbek-turkman xalqlari azaliy do'stligini yana-da mustahkamlash, madaniy-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, ilm-fanni o'stirish haqida qimmatli fikr-mulohazalar aytdi.

Yubiley nishonlangan kuni, kolxozda paxta tozalash zavodi ishga tushirildi. Qishloq markazning orqa tomonidagi katta maydonda ot chopar musobaqalari, xorazmlik ajoyib san'atkorlar Olmaxon Hayitova, Ahmadjon Qurbonboevlar, shuningdek, qishloq badiiy havaskorlar ansamblı ishtirokchilarining, turkman sozanda-baxshilarining chiqishlari minglab tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi.

Yaqin o'tgan yillardagi Ashxobod va Dosho'g'iz shaharlariда, keyinchalik Toshkent va Buxoroda ikki davlat Prezidentlari Islom Karimov va Gurbonguli Berdimuhamedovlarning uchrashuvlari bu do'stlik aloqalarining yorqin namunasi bo'lib qolajak!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Turkmanistonga tashrifi paytida, Ashxoboddagi Ruhiyat Saroyida bo'lib o'tgan tantanada Turkmaniston Prezidentining Farmoni bilan O'zbekiston Prezidentiga berilgan "Turkmanistonning Hurmatli El oqsoqoli" unvoni nishonini Islom Karimovga taqish va turkman to'ni bilan telpagini kiygizish kabi davlat darajasidagi sharafli vazifaning Sa'dulla otaga topshirilishi u kishining obro'si naqadar yuksak ekanini yana bir bora ko'rsatdi. Shuningdek, o'z navbatida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ham Turkmaniston Prezidenti Gurbonguli Berdimuhamedovni "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlagani ikki xalq do'stligining betakror ramzi bo'ldi.

Bo'lib o'tgan ushbu voqeani televizor ekrani orqali ko'rib, bexos ko'zimdan yosh chiqqanini sezmay qolganman.

Sa'dulla otaning hayoti, bosib o'tgan yo'li, uning taqdiri haqida chuqur o'ylasangiz, bir necha o'n yil davomida ishlab kelgan Respublika rahbarlari B.Avazov, M.G'afurov, S.Niyozov, G.Berdimuhamedovlar hurmati va e'tiboriga otaning bunchalik sazovor bo'lishining zamirida bir ilohiy sir bo'lsa kerak degan o'ylarga borasan kishi!

2007 yilning 14 sentyabr kuni Sa'dulla otaning turmush o'rtog'i O'g'iljon onamiz olamdan o'tgani xabari keldi. Biz tuman oqsoqollarining raisi Qadamboy Matsafoev, bojam, shifokor Yo'ldosh Ro'zmatov va men Dosho'g'izga yo'l olib, marhuma onamizning oila a'zolari: Sa'dulla ota, o'g'illari Ro'zimboy, Komiljon, Umrbek, Shuhratlarga o'z ta'ziyamizni bildirdik. Janoza o'qilguncha Sa'dulla ota biz bilan yonma-yon, hech qayoqqa ketmasdan birga o'tirdi. Men Sa'dulla otaga ko'ngillik berib, hol-ahvol, sog'ligi haqida so'rashdim. Oradan ancha vaqt o'tdi, janozaga juda ko'p odam yig'ildi.

Sa'dulla ota sekin o'midan turib, mening qo'limdan ushladi va odamlar oldidan o'tib, uy ichiga kirdik. Ichkarida hamma xonalar ayollar bilan liq to'la edi. Ular o'rinalidan turib, bizga yo'l berdilar. Oralab o'tib Sa'dulla ota meni yoz ayvon tomonga olib chiqdi. Yoz ayvondan o'tib hovuz bo'yiga bordik. Hovuz bo'yiga ekilgan, ancha yetilib qolgan to'rtta gujum e'tiborimni tortdi. Keyin birga kichkina bog'ni aylanib chiqdik. Men o'n yillar oldin ota uyiga mehmon bo'lib borganimda gujumlar ancha yosh edi. O'shanda Sa'dulla ota yangi qurilib ishga tushirilgan, oilaga moslashtirilgan issiqxonani menga ko'rsatgan edilar.

Uning shunday og'ir kunida hammaning oldida namoyishkorona iltifoti meni hayratga soldi. Chuqur o'yga toldim, bu holatga javob izlashga harakat qildim, nihoyat kalavaning uchini topganday bo'ldim.

Inson umrida qanchalik yuksak martabalarga erishmasin, dildagi barcha orzu-armonlari ro'yobga chiqmasin, qancha umr ko'rmasin, baribir og'ir va quvonchli kunlarida kindik qoni tomgan ona zaminni, qarindoshlarini, do'starini qo'msaydi; qalbining qayeridadir bo'shliq bo'ladi. Bizning tashrifimiz shu bo'shliqni to'ldirdi, shekilli, degan xulosaga keldim.

Marosimdan keyin marhuma onamizni joylashtirib, odamlar qabristondan qaytgach, Sa'dulla ota bilan bir chetga o'tib, unga ko'ngillik bermoqchi bo'lib:

– Sa'dulla ota, ko'nglingizda bizning janozaga kelganimiz bir yona, butun elning kelgani bir yona bo'lgan bo'lsa kerak, – dedim.

– Rahimbergan, aytganingdan ham ziyoda bo'ldi, – dedi u.

Bu voqeani aytishdan maqsad, men ular qalbini, ular esa mening qalbimni ko'zlarimizga qarab tushunardik, sezardik. Sa'dulla ota o'ta kamgap, har qanday odamning yuziga, ko'ziga qarab lo'nda-lo'nda qilib ochiq va dadil gapiradigan odam edi. Uning gapidan birov xafa bo'ladimi-yo'qmi, muhim, keyinchalik uni to'g'ri tushunib, to'g'ri xulosa chiqarsa bas edi. Zotan, to'g'ri so'zlilik haqiqat va adolatning bosh mezonidir!

Biz Sa'dulla ota bilan garchi uzoqda bo'lsak-da, kamdan kam uchcrashsak-da, bir-birimizni yaxshi tushunardik.

Bir kuni uzoqroq qarindoshimizdan birining oilasi qiynalib qolganini, uzoqda ishlagani uchun uyiga oylab kela olmasligini bilib, yaqinroq joydan biror ish topib berishini iltimos qilib, haligi qarindoshni Sa'dulla otaning oldiga olib bordim. Sa'dulla ota:

– Rahimbergan, bu odamni ko'p ishlarga qo'yib ko'rdim, bo'ljadi. Ko'p o'ylandim, otasi bilan birga ishladim, bobosi ham yaxshi odam edi. O'ylab-o'ylab kalavaning uchini topdim. Buning momosida biroz ishkal bor edi, -dedi u odamning yuziga qarab. Shunda men o'zimni juda noqulay sezdim. Chunki bu odam aroqxo'r bo'lgan ekan. Umrimda hech qachon birovga va hatto o'z farzandlarim uchun ham ish so'rab o'rtaga tushmagan mening ahvolimni ko'rsangiz edi. Ota ichadigan odamlarni yoqtirmas edi.

– To'g'ri-da, birinchidan, aroqxo'r odam bilan do'stlashib bo'lmaydi, chunki uning do'sti aroq, – derdi u. – Ikkinchidan, unday odam bilan biror masalani hal qilishning imkonini yo'q. Mast bo'lgandan keyin va'dani beraveradi, ertaga oyilgandan so'ng so'zidan yana qaytaveradi. Ayniqsa, mas'ul va rahbar lavozimlarda ishlagan odamlar hushyor bo'lishlari kerak. Hushyor odamlar bilan ishlasang, unga ne yetsin, – dedi ota. Otaning bu so'zlari menga juda ma'qul keldi. Qo'shko'pirda ishlagan davrimda tumanda ichkilikka qarshi ancha ishlar qilganmiz. O'shanda Toshkentga borib, tegishli tashkilotlarga kirib, tumanning 6 million so'mlik aroq fondini rejadan olib tashlatib, o'mniga xalq iste'mol mollarini kiritib kelganman. Albatta, bu siyosat uzoqqa cho'zilmadi. Bugun ikkala Respublikada ham barcha ishlar, ko'z tegmasin, yaxshi ketayotir. Ammo meni bir narsa tashvishga soladi, to'y-hashamlarda, ayniqsa, yoshlar spirtli ichimliklarni ko'p ichadi. Bu bizning milliy-diniy udumlargacha aslo to'g'ri kelmaydi. Albatta,

hayotimizdagi bu kabi nuqsonlar vaqt kelib to'g'ri yo'lga tushib ketar, inshaalloh!

Otaning hayotdagি ayrim masalalarga munosabati, dunyoqarashi va uning falsafasi haqida odamlar ichida hazildagishma gaplar ham yuradi. Bir kuni ota o'zining yaqin tengdosh do'stlari bilan suhbatlashib o'tirganida ichidan dadilroq biri:

– Sa'dulla do'stim, yoshulli, mana siz ham endi sakson beshdan o'tib, to'qsonga qarab ketayapsiz. Ro'zimboy ancha yoshlarga borib qoldi. Uning ustiga u qo'shni xo'jalikka rahbarlik qildi. Komiljon ham yosh emas, qishloq xo'jalik sohasida tajribasi bor. Ishni, o'rningizni ulardan biriga topshirsangiz bo'lmaydimi? – debdi. Shunda ota:

– Ey, do'stim, sen hamma gapni gap deb aytaverasan. Xo'sh, topshirdik ham deylik, baribir bolaning ishi bola-da! – debdi jiddiy. Bu gapga o'tirganlar rosa kulishibdi. Mana sizga xalqimizdan qolgan naqlni o'mnida ishlatish, hozirjavoblik namunasi. Yuqorida otaning to'g'ri so'zligi haqida gapirdik. Har qanday sharoitda, hech tortinmay, hatto katta anjumanlarda Respublika rahbarlariga o'z fikrini, to'g'ri so'zni dadil aytish odati otada bor edi.

Turkmaniston Prezidenti G.Berdimuhamedov bilan so'nggi uchrashuvlardan birida otaning aytishicha, O'zbekiston va Turkmaniston xalqlari o'rtasidagi aloqalarni yanada yaxshilash kerakligi, O'zbekistonning paxta yetishtirish sohasidagi tajribalarini o'rganish, qishloq xo'jaligi ekinlariga zarar keltiradigan zararli hasharotlarga qarshi kurashuvchi foydali hasharotlar yetishtiradigan biofabrikalarni tashkil etish kerakligi va boshqa muhim masalalarni ochiq aytgan ekan. Ota keyingi qisqa vaqt ichida ushbu masalalar ijobjiy tomonga hal bo'lganidan xursand edi.

2009 yilning 12 dekabrida otaning muborak 90 yoshga kirishi to'g'risidagi xabarni eshitgach, Yo'ldosh og'a Ro'zmetov, Qadamboy Matsafayev, Qadamboy Qo'shjonov, Boboxon

Ismoilov va Rustam Jumaboevlar bir kun oldin yetib keldik. Ertasiga qishloq Madaniyat saroyiga borib, ko'plab dosho'g'izlik do'stlar va tanish-bilishlarni ko'rdik. Madaniyat saroyi o'rindiqlari liq to'la edi. Mehmonlarning zalda o'tirishiga qarab, tantanavor bayram kayfiyati hukm surishini kuzatdik.

Men umrimda ko'p anjumanlarda, bayramlarda qatnashganman. Ammo inson umriga, qadr-qimmatiga va, nihoyat, uning hurmatiga bag'ishlangan bunday tantanalarни birinchi bor ko'rishim edi. Bu holat bizning ham qalbimizni g'urur va iftixorga to'ldirdi.

Bularning hammasi Allohning inoyati va Turkmanistonning hurmatli Prezidenti Gurbonguli Berdimuhamedov rahnomaligida bo'lib o'tayotganini har bir to'y ishtirokchisi chin dildan his etib mag'rur o'tirardi.

Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi raisining o'rinnbosari so'zga chiqib, Respublika Prezidentining ota nomiga yo'llagan tabrigini o'qib berdi va sovg'alar topshirdi.

Shundan so'ng viloyat rahbarlari, kasbdoshlari, olimlar, Xorazm va Qoraqalpog'istondan kelgan mehmonlar zalning oxirigacha navbatda turib, o'z sovg'alarini topshirib, otani bag'irlariga bosib tabrikladilar. O'z navbatida biz – Xorazm viloyatidan Jumaboy O'tamov bilan kelgan mehmonlar otaga chin yurakdan ezgu tilaklar bildirdik. Sahna gullarga to'lib ketdi. Tantanada ishtirok etganlarning biri, MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) ijroiya komitetining raisi va shu komitetning ijroiya kotibi Sergey Lebedev ham oddiy inson Sa'dulla otaga bildirilgan bu katta hurmat-ehtiromdan xursand ekanini izhor qildi.

Tabrik va qutlovlар tamom bo'lgach, ota so'zga chiqdilar. Avvalo o'z nomiga aytilgan barcha iliq so'zlar uchun kelgan hamma mehmonlarga va so'zga chiqqanlarga: "Sizlar ham mening yoshimga yetinglar!" deb minnatdorchilik va tilaklarini bildirdi. Bu martabaga qanday erishgani sirlarini sodda qilib gapirib berdi. Urushdan keyin o'qituvchilik qilgan, mакtab

direktori bo‘lib ishlagan, keyin 1956 yilda xo‘jalik raisligiga saylangani, xo‘jalikda paxta hosildorligini 10-12 sentnerdan ikki yil ichida 30 sentnerga ko‘targanini, ikki yilning natijalariga ko‘ra Mehnat Qahramoni unvoni va “Oltin Yulduz” taqdim etilgani hamda xo‘jalikning keyingi yutuqlarini qisqa gapirib, so‘zi yakunida:

– Rahbar bo‘lgan kishi birinchi navbatda mehnatsevar, halol, odamlarga nisbatan mehribon, lekin o‘ziga va o‘zgalarga talabchan bo‘lishi kerak. Agar talab adolatli bo‘lsa, odamlar rahbarni yomon ko‘rmaydi. Qattiq talab natijasida ish unumli bo‘ladi, yaxshi daromad olinadi. Odamlar bunga tushunadi. Rahbar kishi uch masalada o‘z nafsin tiya bilishi kerak.

Birinchisi: boylikka intilish, ikkinchisi: xotin-qizlarga ko‘z qizdirish, uchinchisi: maishatparastlik. Halol bo‘lsangizlar, nafsingizni tiysangizlar, hayotda hamma narsaga erishasizlar, azizlar! – deb mehmonlarga murojaat etdi.

Boshqalarni bilmadimu, ammo shaxsan mening qalbimda bu o‘gitlar bir umrga muhrlanib qoldi.

Kechaning ikkinchi qismida mehmonlar tushlikka taklif etildi. Haqiqiy tom ma’noda bayram dasturxoni yoyilgan edi. Kechaning badiiy qismi rang-barang, bag‘oyat fayzli bo‘ldi. Kechani viloyat hokimi boshqarib bordi. Qutlov va tabriklar davom etdi. Xorazm viloyatidan Jumaboy O‘tamov boshchiligidagi bir guruh delegatsiya a’zolari va viloyat hokimi nomidan otani tabriklab, sovg‘a-salomlar topshirildi. Ziyofat oxirida hamma xorazmliklarga ota nomidan turkman to‘ni va cho‘girmalar kiygizilib, belbog‘ bog‘landi. Ko‘rsatilgan bu izzat-hurmatdan barcha mammun edi. Quvonchu sevinchdan bir-birimizni, otani, viloyat hokimini quchar edik. Bular hammasi zal sahnasida davom etardi. Kecha ana shunday ko‘tarinki vaziyatda nihoyasiga yetdi. Mehmonlar bir-biri bilan qayta-qayta xayrashdi. Ertaklardagidek bo‘lib o‘tgan bu lahzalar fotomuxbirlar tomonidan suratlarga va videotasmalarga tushirildi. Yuqorida aytib o‘tilgan olti nafer kishi – shovotlik mehmonlar kechqurun dam olish va to‘yning yakuniy qismini davom ettirish uchun mehmonxonaga

taklif etildik. Ular orasida Ashxoboddan kelgan mehmonlar va Sa'dulla otaning o'g'li Komiljonning birga o'qigan yangiariqlik do'stlari Arslon Yusupov, Habibulla Ro'zmatovlar ham bor edi. Bir oz dam olganimizdan keyin kechqurun yana bazm davom etdi va hammamiz dasturxon atrofiga to'plandik.

Keyingi yillarda ota mehmonxonani martabali mehmonlarni qabul qilishga moslab qaytadan qurdirgan edi. Qishki bog'dagi har xil o'simliklar, sayrab turgan qushlar bizda o'zgacha bir xush kayfiyat va taassurotlar paydo qildi.

Kecha uzoq davom etdi. Tabriklar aytilib, she'rler, monologlar o'qildi. Shunda otaning o'g'illari Ro'zimboy va Komiljonlarni qayta kashf qildim. Ro'zimboy Rossiyada o'qib, rus adabiyoti donishmandi ekanini, katta shaxsiy kutubxonasi borligi va ko'p kitob mutolaa qilganini, Komiljon esa o'zbek va turkman adabiyoti ixlosmandi, ayniqsa, shoir Abdulla Oripov hamda Omon Matjon she'rlerini yod bilishiga guvoh bo'ldim. Komiljon menga Navoiy monologini bir necha marotaba ayttririb, telefonga ham yozib oldi. O'zi ham monologlar aytib, hammamizni xursand qildi. Shunday qilib, hamma narsaning boshi va oxiri bo'ladi, deganlaridek otaga qayta-qayta uzoq-umr, sog'lik-omonlik tilab dam olish xonalariga tarqaldik. Ertalab nonushtaga to'plandik. Dasturxon atrofiga oilaning, otaning eng yaqin insonlari yig'ildi. Ularning har biri bizni hurmatli mehmon sifatida qadrlab, barcha xizmatimizga shay turganini ko'rib, ota xalqimizning qadimiy va eng go'zal urf-odatlardan biri – mehmondo'stlik fazilatini ham o'g'illari va yaqinlari qalbiga bir kansiz singdira olganiga yana ming karra amin bo'ldik. Komiljon endi otaning o'rniga rais, qishloq xo'jaligi hissadorlik jamiyatini boshqaradi. Ro'zimboy ham qishloq kengashining archini qilib saylandi. Ota nafaqat o'z davrida Respublikada ko'zga ko'ringan, har tomonlama rivojlangan, zamon talablariga javob beradigan agrosanoat xo'jaligi, undagi hashamatli binolar, bog'u roq'lar, obod posyolkalar va boshqalargagina emas, balki o'zining mehnati evaziga barpo etilgan barcha moddiy va

madaniy boyliklarga egalik etadigan, u barpo qilgan mini davlatni boshqarish qobiliyatiga ega sodiq o'rribbosarlarni ham tarbiyalab yetkazganiga yuz bor, ming bor ishonch hosil qildim.

Nonushtadan keyin otaning uyiga borib, u bilan xayrashdik va yo'l-yo'lakay Dosho'g'iz shahrini tomosha qildik. Shahar so'nggi ikki yil ichida tanib bo'lmas darajada jahon shaharsozlik va arxitekturasi andozalariga mos ravishda qayta jihozlanganini ko'rib, katta taassurotlar bilan uyga qaytdik. Oradan bir oy o'tgach, otadan to'y tantanalari aks ettirilgan fotoalbum va kitoblarni oldik. Mana sizga e'tiboru ehtirom!

Ota o'z hayot yo'liga bag'ishlab yozgan "Mustaqillik – umrim ravshanligi" nomli kitobida Qadamboy va men haqimda alohida to'xtab o'tganidan boshimiz osmonga yetdi. Jumladan, ota shunday yozadilar: "Otamizning surgun qilinganini ko'rmay qolganimning sababi bor. Surgun kunidan bir hafta oldin biz onamiz bilan Shovot tumanining Monoq qishlog'ida yashaydigan, el ichida "ko'raklar" deb nom olgan bir necha xonadondan iborat otamizning yaqin qarindoshlarinikiga mehmonga ketgan edik. Hozirgi kunda ularning avlodlaridan bo'lgan Reyimbergan Toyirov, Qadamboy va Ilhomboy Matsafoevlar barhayot bo'lib, har qaysisi bir badavlat xonodon sohibidirlar. Reyimbergan Toyirov sovet davrida Xorazm viloyatining Shovot tumani partiya komitetining birinchi sekretari lavozimida ishlab, iste'dodli rahbar sifatida e'tibor topdi. Qadamboy Matsafoev esa Xorazm viloyat radio va televide niye komitetida voiz, keyinchalik Shovot tumani ijrokomi raisi o'rribbosari lavozimida ko'p yillar mehnat qildi".

Men kitobni o'qir ekanman, ko'z oldimda avvalo o'zining, sevimli onajoni va yaqinlarining hayoti uchun tinimsiz kurashgan bola, keyinchalik butun el mas'uliyatini o'z bo'yniga olib, xalq maqollarida aytilgandek "etik bilan suv kechgan" zabardast erkak qiyofasi ko'z oldimda shundoq namoyon bo'ldi. Umuman olganda, bu kitob birinchidan, otaning garchand hayotiy kechinmalari bayoni bo'lsa ham, ikkinchidan, o'zi yashagan

davr, o'sha zamon odamlari haqidagi kattagina ma'lumotnomasi sifatida qarash o'rinli bo'ladi. Chunki kitobda tilga olingen har bir inson o'z davrida xalqimiz tarixida ma'lum ma'noda – xoh salbiy bo'lsin, xoh ijobiy bo'lsin – iz qoldirib yashab o'tdi. Uzoqqa ketib o'tirmasdan otaning O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, yozuvchi va adabiyotshunos olim Matyoqub Qo'shjonov bilan bog'liq xotiralarini yodga olaylik. Bolalikning beg'ubor yillaridan to qarilik davrigacha ajralmas do'st bo'lgan bu insonlarning hayotiy faoliyati, ularning o'zaro samimiy munosabatlari aks etgan lavhalar ota hayotining ham, uning yozgan xotiralar kitobining ham yorqin bezagi desak bo'ladi. O'z navbatida Matyoqub aka ham do'sti Sa'dulla ota haqida "Qahramon" deb nomlangan kattagina ocherk yozdi. Ota umrining yorqin qirralari, chinakam qahramonona ishlari bilan bir qatorda uning chin insoniy qiyofasi, odamlarga, ilm-fanga, adabiyotga munosabatlari yorqin misollar bilan yoritilgan bu ocherk ham ikkala do'sting bir-birlariga yuksak ehtiromidan tug'ilgan asar bo'lsa ajab emas. Shu o'rinda bir narsani alohida ta'kidlashni xohlardimki, otaning bu xotiralar kitobi ulug' yodgorlik kabi bizga, bizdan keyingi avlodlarga kimligimiz, el-yurt oldida qanday mavqeni egallaganimiz, bundan keyin qanaqa bo'lishimiz lozimligini doimo uqdirib turuvchi dasturilamal vazifasini o'tashi shubhasizdir.

Bir marta Qadamboy bilan birligida otaning bizga bildirgan hurmat-ehtiromi uchun o'z tashakkurimizni aytgan edik. Kezi kelganda shuni aytish kerakki, ota bilan mening aloqalarimning davomiyligini ta'minlab turishda Qadamboy va bojam Yo'ldosh og'a Ro'zmetovning xizmatlari juda katta. Qadamboy qarindosh va tuman rahbari sifatida, Yo'ldosh og'a esa tumanning birinchi xirurgi hamda hammamizdan katta bo'lgani uchun ularning o'z o'mi bor. Yo'ldosh og'a 25 yillardan beri qizi Manzura shu xo'jalikda yashayotgani sababli ota bilan bordi-keldi qilib, uning yaqin oshnasi bo'lib qolgan. Bir kuni ota bizning boja ekanimizni bilib qolib:

— Ha, sizlar hali bojamisizlar, shuncha yildan buyon bilmas ekanmiz,— deb hayron qolganlar. Hamisha uchalamiz birga yurganimizni ko'rib, ota xursand bo'lar edilar va bunga otaning farzandlari ham havas qilardilar.

Bir kuni mehmonga borib ota bilan uzoq suhbatlashdik. U rahbarlik qilgan davridagi yutuqlari va qiyinchiliklari haqida so'zlab berdi.

— Reyimbergan, senga to'g'risini aytsam, shu yillar davomida oilamizning iqtisodiy ahvoli yaxshi emas edi. Faqat Prezidentimiz S.Niyozov o'z muhri bilan 90 hektar yerni xususiy qilib bergandan keyin oilamizning iqtisodiy ahvoli yaxshi bo'lib ketdi, — dedilar. Kutilmaganda otaning bu so'zlari hayron qolarli darajada ta'sir etdi, nahotki 10-15 ming tonnalab don va paxta beradigan shunday yirik xo'jalikning rahbari oilasida iqtisodiy qiyinchilik bo'lsa!

Bu suhbat otaning 90 yoshga to'lgan yubileyidan keyin bo'lib o'tgan edi. O'shanda otaning yosh to'yida aytgan gaplari esimga tushdi. Meni otadagi bu kabi hayratomuz, oddiy odamlarga xos bo'limgan chuqur insoniy fazilatlari qayta-qayta fikr yuritishga undaydi. Hayotga qarashlari, printsiplari ko'p tomonidan menga yaqin bo'lgani uchunmi, otani borlig'icha kashf qilish bilan butun xayolim band edi!

Ota shu yoshda bo'lsa-da, fan yangiliklariga, so'nggi texnikalarga qiziqardi.

— Reyimbergan, yerlarni kamida 8-10 yilda bir marta mikroplanirovka (kapital tekislash) qilish kerak. Hozir lazer bilan ishlaydigan, kompyuterlarda boshqariladigan yer tekislovchi mashinalar chiqdi. Shundan uchtasini sotib oldik, yana olmoqchimiz, — deb qoldi. Men qishloq xo'jaligi bo'yicha injener — mexanik bo'lsam-da, bu haqda eshitmagan ekanman. Shuning uchun indamasdan otani tinglashga majbur edim.

Lazer nurlari dalaning past-balandini uzoqdan ko'rib o'ichovini kompyuterga beradi, u esa mashinani avtomatik ravishda boshqaradi. Dehqonchilik ilmini otadek egallagan

insonlarga bizda “Xalq Akademigi” deyishadi. Ot izini toy bosar deganlaridek, Komiljon qishloq xo‘jalik fanlari nomzodi, hozirgi kunda u raislik bilan birga doktorlik dissertatsiyasi ustida ham ish olib bormoqda. To‘g‘risi ilm bilan tajribani birga qo‘sib olib borish o‘zining yaxshi samarasini berishi kerak. Unga Komiljonga bunday foydali ilmiy-tadqiqiy faoliyatida kuchg‘ayrat tilaymiz va omad yor bo‘lishini Allohdan so‘rab qolamiz.

Qo‘sni Go‘ro‘g‘li tumanidan ota bilan uzoq yillar ishlagan Xudik og‘a Murodov va Cho‘shshi og‘a O‘rozqilichevlar mening yaxshi do‘sot otaxonlarim edilar. Ko‘p yillar tumanda rahbarlik lavozimlarida ishlagan Hanifa Qurbonova, O‘rinboy Bayramov va Murod Xudoyberganovlar ota bilan samarali muloqotda bo‘lib ishlaganlarini yaxshi bilaman. Ular bilan ham yaqin do‘sot edik. Murod Takayevich tumanimiz hosil bayramiga mehmon bo‘lib kelganida, yosh yigit bo‘lsa-da, to‘yda yig‘ilgan butun shovotliklarga uni “ikkala tuman oqsoqoli” deb e’lon qilganman. Hozir ham u bilan tez-tez uchrashib turamiz. Viloyat va tumanlarda, shuningdek, xo‘jaliklarda otaning nazari tushgan shogirdlarining sanog‘i yo‘q desa bo‘ladi. Nafaqat fahm-farosatli, ma’rifatli o‘g‘illari, balki shogirdlari bilan ham ota o‘ziga hayotligi paytidayoq haykal qo‘yib ketdi. Xo‘jalikka o‘zi ishlab turgan davrda uning nomi qo‘yilishi ham buning yaqqol dalilidir. Umrboqiylik deb shuni aytishsa kerak!

2010 yilning kuzida otaning uyiga ziyyarat qilish uchun bir o‘zim tush paytida kirib bordim. Ota xonasida tushlik qilib o‘tirgan ekan. Televizor ishlab turardi. Nevarasi Shavkat har galgidek bobosi yonida. Ota bilan hol-ahvol so‘rashgach, Shavkatbekka yaxshi istaklar bildirib, duolar qildim. “Ilohim, otaning qariganda mehri singgan, erta-kech birday yonida bo‘lgan Shavkatbek kelajakda bobosidek buyuk insoniy mavqe-martabaga erishsin!” Ota o‘zining sevimli parhez taomi tovuq tuxumining oqidan tayyorlangan barak yeb o‘tirganini birinchi bor ko‘rdim. Biz uzoq suhbatlashdik. Hoji otamiz o‘zining yoshligi haqida so‘zladi. Ayniqsa, otasi to‘g‘risida gapirib:

– Reyimbergan, bir armonim bor, u ham bo'lsa, otam yoshligimizda erta ketdilar, – dedi. Bu haqda avval ham aytib bergenlari esimga tushdi. Otaning so'zini bo'lmadim, chunki yoshligidayoq ota mehriga to'y may qolish bir umrga, hatto 90 yoshda ham yuragining bir joyi jarohat bo'lib qolaverishini yaxshi tushungan holda eshitash boshladim.U davom etardi:

– Otam o'n bir yoshimda qatag'onga duch kelib, qamaldilar. Onam bilan yolg'iz qoldik. Otam ko'p o'tmasdan Ashxobodda Oliy sud hukmi bilan ozod etilib, to'g'ri Monoqqa, og'aynilar oldiga kelibdi. Kechasi bilan "ko'raklar" qavmi yig'ilib maslahat qilibdi. Og'aynilar: "Ro'zmatboy, ozodlikka chiqqaning yaxshiyu, endi bu yog'iga nima qilmoqchisan?", deb so'rashibdi. Otam esa: "Men ertaga bolalarim oldiga ketaman", debdi. Shunda ular: "Ro'zmatboy, agarda sen ertaga bolalaring oldiga qaytib borsang, baribir uzoqqa borolmaysan. Seni yana qamatadilar", deb dangal aytishibdi. Ko'pning maslahati shu bo'libdi. Ammo otam qat'iy turib: "Men Oliy sud hukmi bilan ozodlikka chiqdim. Meni endi hech kim hech narsa qila olmaydi", deb o'z so'zida qolibdi. "Nachora, mayli", deb og'aynilar rozi bo'lishibdi.

– O'shanda, – deb davom etdi ota, – otam og'a-inilarining, ko'pchilikning maslahatiga quloq tutib, Monoqda qolib ketsa bo'lardi. Shunda u Ukrainadek olis yurtlarga surgun qilinib, hoki begona tuproqlarda xor bo'lib, qolib ketmasmidi deya o'ylanaman. Bu o'ylar menga mana necha yillardan buyon tinchlik bermasdan, yuragimda katta armon bo'lib qolmoqda. Afsuski, Reyimbergan, dunyoda armonsiz odamning o'zi bo'limas ekan, – dedi ota mahzunlik bilan.

Shu yillar davomida onasi bilan qancha qiyinchiliklarga duch kelganini, katta bo'lib Matyoqub Qo'shjonov bilan Chorjo'y pedinstitutida o'qib, o'qituvchi, keyinchalik maktab direktori vazifasida ishlab yurganida kolxozi raisligiga taklif qilishganini, rais bo'lgandan keyin ikki yil ichida paxta hosildorligining 10-12 sentnerdan 30 sentnerga ko'tarilganini va shu yilning yakuniga ko'ra unga "Sotsialistik Mehnat Qahramoni" unvoni berilganini

so'zlab berdi. So'ngra: "Keyingi voqealarni o'zing bilasan", deb qo'shib qo'ydilar.

Suhbat tamom bo'lar-bo'lmas kutilmaganda:

– Reyimbergan, agar senga to'y-marosimlarga aytilsa, kela olasanmi? – deb so'radilar.

– Sa'dulla ota, nima deyapsiz o'zi, agarda tanimda jonim bo'lsa, aytilsa, albatta, kelaman, – dedim bir oz hayajonlanib.

– Endi bo'lmasa, sizga yana bir so'rovim bor, – dedilar meni "siz"lab, – u ham bo'lsa, buni men ko'pdan beri o'ylab yuribman. avvalgi kelganlaringda ham aytmoqchi edim, to'g'ri kelmadi. Shu yaqin kunlardami, oylardami, o'zim sizga aytaman, "ko'raklar" qavmini, qarindoshlarning hammasini bir joyga to'plab bersangiz, ular bilan bir uchrashib gaplashmoqchi edim, – dedilar. Negadir xo'tsinib, bir pas indamay qoldilar.

– Bu ishda sizga Qadamboy ham yordam berar, – deb qo'shib qo'ydilar. Men otaning ko'p vaqtini olib, ancha charchaganini sezib:

– Sa'dulla ota, anchadan buyon suhbatlashib, sizni toliqtirib qo'ydim. Siz endi biroz dam oling, ruxsat bersangiz, men qaytaman,-dedim. Shunda nimalarnidir otaga aytishim keragu, aytolmay qolganday bo'lib, uning chap yon tomonida jimgina o'tiribman. Otaga shunday tikilsam, bir fikr ko'nglimdan "yalt" etib o'tganday bo'lib, birdan:

– Sa'dulla ota, sizning shu o'tirishingizni ko'rib bir narsa yodimga tushdi, – dedim. Ota egniga oq ko'ylak va lozim kiygan, boshiga esa oppoq do'ppi, yelkasi sal chiqib, beli biroz bukchaygan edi. Dam olishga chiqqanidan keyingi davrda ko'p tabib va shifokorlarda davolanib, go'yo yasharganday, nafas olishlari ravon bo'lib, yuzlaridan nur taralayotganini his qildim.

– Sizning shu o'tirishingiz xuddi bir avliyolarga o'xshaydi, – deb yuborganimni bilmay qoldim. Ota esa bunga javoban yanada chehralari ochilib, bu hazilmi yo chin ekanini bilmasdan kulib yubordilar. Bu ko'tarinkilikni ko'rib, men ko'pdan o'ylab yurgan yana bir savolni berishga jazm qildim:

– Sa'dulla ota, mana, ishni Komiljonga, Ro'zimboylarga topshirganingizga ancha bo'ldi. Bugun farzandlaringizdan ko'nglingiz to'qmi? – dedim xuddi otaning tengdosh do'stiday bo'lib.

– Xudoga shukur, ko'nglim to'q, Reyimbergan, – dedilar ota. Shu bilan biz xayrlashdik.

Endi o'ylab ko'rsam, bu ota bilan oxirgi uchrashuv, ota tomonidan menga aytilgan oxirgi so'z edi. Qarindoshlar bilan uchrasha olmay qolgani otaning ikkinchi armoni, ikkinchi kamchil tomoni bo'lib qoldi. Shuning uchun ham bu dunyoni "Biri kam dunyo" deydilar. Bu ikki og'iz so'zda qancha ma'no mujassam.

Menimcha, bu hikmatning ma'nosi – har bir inson dunyoda go'yo armonimizdek yashasa ham, uning bir tomonida yetar-etishmovchilik, yo'qotishlar bo'lishi tabiiy hol, deganidir. Birov ota-onasini, kimdir o'g'il-qizini, birov yana boshqa yaqinini yo'qotadi. Ammo qanday bo'lmasin, bu dunyoda yashash kerak! Hayot shirin, bu dunyoda hamma narsa yetarli, boringki, yeymen, ichaman, yaxshi yashayman degan kishiga dunyoning kamchiligi yo'q! "Bekam dunyo" degani shu bo'lsa kerak. Bu turfa olam hamisha harakatda, aylanishda. Shunga monand inson ham doimo harakatda bo'lmosg'i kerak. Bu – hayot qonuni!

Ota dunyoning ushbu falsafasini to'la anglagan tabarruk inson bo'lgani uchun ham hayotdagi barcha qiyinchilik, yo'qotishlarni o'zining tinib-tinchimas harakati, aql-zakovati, mehnati bilan yengib o'tolgan va shular sababli o'ziga hamda xalqiga, farzandlariga bekam va faravon ajib bir dunyo yaratgan, desam to'g'ri bo'lar!

2011 yil 20 yanvar kuni ota olamdan o'tganı haqida mash'um xabarni eshitdim. Yo'ldosh og'a va Qadamboy bilan shu kunning o'zida otanikiga yetib bordik, o'g'illariga, qarindoshlariga, hamma tanish-bilishlarga ta'ziya bildirdik. Uyga kirib biroz hol-ahvol so'rashgandan keyin otani ziyorat qilishga shoshildik. Ota o'zining xonasida abadiy uyquga ketgan holda usti – yuzlariga oq

mato yopilib yotar edi. Men asta otaning yuzlarini ochdim, yuzko'zlarini siladim, keyin esa egilib peshanasidan ohista o'pdim, mijjalarimda yosh aylanib, xo'rsindim. Chunki uni vafot etadi deb hech kim o'yamas edi. Yuz yoshli to'ylarini o'tkazish haqida o'ylar edik. Uning keyingi paytlarda yaxshi davolanib, sog'ligi ham ancha yaxshilanganini yuqorida aytganidemek guvohi bo'lgan edim. O'lim vaqtি-soati yetganda hamma uchun baribir haq-da! Alloh nazar solgani uchun ham ul zotga oson o'limni ravo ko'rganiga xayolimda imon keltirdim. Shunchalik hech kimga, farzandlariga ozori tegmasdan Allohnинг siyovi va marhamatiga sazovor bo'lishdan har bir bandasi uchun ziyoda ish bormi o'zi bu yolg'onchi dunyoda?! Odamning qo'lidan nima ham keladi? Hammaning ham ertami-kechmi oxiri shu-da – manzil bir. Bizning: "Alloh u kishini o'z rahmatiga olsin", deb duo qilishdan boshqa ilojimiz yo'q. Xonadan chiqishda otaning nuroniy chehrasi aks ettirilgan portret va sanog'i yo'q orden-medallarga ko'zimiz tushdi.

Ertalabdan otaning eshigi oldida janozaga tayyorgarlik taraddudlari boshlandi. Tashqarida esa oppoq qor yog'moqda. Nazarimizda, Sa'dulla otaning ruhi poklariga go'yo Allohnинг rahmatlari yog'ilayotgandek edi. Dosho'g'izlik iste'dodli shoir Abdulvohid Saidmatov "Sa'dulla ota marsiyasi"da shunday yozadi:

*Yog'dir, Xudo, yog'dir ko'kning rahmatini,
Ko'ngil chekar bugun hijron zahmatini,
Yolg'iz qilib ming odamning mehnatini,
Bu hayotni qilib to'qson qadam bugun,
Ketib borar shunday ulug' odam bugun.*

*Quyosh turmay turardi u har ertalab,
O'z oldiga qo'ygan edi shunday talab,
Umr bo'y'i ko'tardi el g'amin yelkalab,
Bormi endi uning kabi hotam bugun,
Ketib borar shunday ulug' odam bugun.*

*To 'rtta o 'g 'il tutgan tobut dastasini,
Qalb yig 'laydi, chiqarmaydi dard sasini,
Bir chekkaga suyab qo 'yar hassasini,
Katta bir yurt deydi, qani otam bugun,
Ketib borar shunday ulug ' odam bugun.*

*Bo 'l maganni to 'qson yillab bo 'ldirdiyo,
Bor ayladi, hatto yo 'qdan yo 'ndirdiyo,
Ot mindirib, el qozonin to 'ldirdiyo,
Qayda endi shunday yaxshizodam hugun,
Ketib borar shunday yaxshi odam bugun.*

*Biz-ku bunda orqasidan qarab qoldik,
Bir xo 'rsinish, bir ko 'zyoshga yarah qoldik,
Jannatdan joy, Yaratgandan so 'rab qoldik.
Ol yuzlargacha solib motam, motam bugun ,
Ketib borar, shunday ulug ' odam bugun.*

*Yog 'dir Xudo, yog 'dir samo rahmatini,
Ko 'ngil chekar bugun hijron zahmatini,
Ming odamning qilolmagan mehnatini.
Yo 'lga chiqdi qilgan bitta odam bugun,
Katta elga motam bugun, motam bugun.*

Janozaga Ashxoboddan, viloyatlardan, O'zbekistondan, Qoraqalpog'iston dan otani biladigan ko 'plab insonlar, shuningdek, hamqishloqlari kelishgan edi. Janoza maydoniga odam sig'may ketdi. Janoza marosimi tugagach, ko 'pchilik ota izidan – birov mashinada, birov piyoda – qabriston tomon yo 'lga tushdi. Otani qabrga joylashtirgach, imom tilovat qildi. So 'ngra hamma duoga qo 'l ko 'targach, o 'rnidan turishdi. Biroq hammaning yuragida bir narsa yetishmaganday edi. Shunday paytda, Turkmaniston Yoshullilar Maslahati raisining o 'rinbosari, Sa'dulla otaning ko 'p yillik do 'sti Murod Garriyev oldinga chiqib, marhum nomiga iliq

fikrlar aytdi. Shundan keyin ota haqida boshqalar ham juda ko‘p yaxshi gaplar aytishdi; menga ham so‘z berildi:

— Ota turkman va o‘zbek xalqlarining otasi bo‘lib, ikki xalq o‘rtasidagi do‘stlik ko‘prigining ustunlaridan biri edi. Uni o‘lim oramizdan erta olib ketdi. Ota bilan oxirgi marta uchrashganimizda: “Sa‘dulla ota, mana dam olishga chiqqaningizga ancha bo‘ldi. Endi bugunga kelib farzandlaringizdan, ularning ishidan ko‘nglingiz to‘qmi?”, deb so‘raganimda, “farzandlarimdan ko‘nglim to‘q”, deb javob bergandi.

Hammadan ko‘ngli to‘q bo‘lib mangu uyquga kетdilar. Alvido, alvido, alvido, Sa‘dulla ota, qabringizda tinch yoting. Bizlar sizdan rozimiz, siz ham rozi bo‘ling, qabringiz — nur, joyingiz jannatda bo‘lg‘ay, ilohim!” — deb so‘zimni tamomladim. Bu esa, o‘z navbatida, yuqorida aytilgan kemtikni to‘ldirgandek bo‘ldi. To‘g‘ri-da, shunday buyuk zot, avliyosifat inson nomiga bir so‘z aytmay ketib qolish ko‘ngilga sig‘mas edi. Ota uyiga qaytib, kechki fotihalarini o‘tkazish va shu kuni qolib, ertaga uchi (vafot etganiga uch kun to‘lish marosimi)ni o‘tkazib, so‘ng qaytishimizni Ro‘zimboyga aytdik. Bu hammaga ma‘qul tushdi. Ertasiga esa saat ikkilargacha o‘tirib, marosim tugagach, Yo‘ldosh og‘a, Qadamboy, men ota nomiga duo-fotiha qilib, farzandlariga ko‘ngillik berib, undan keyin uygaga qaytdik.

Otaning “qirq to‘ldi” marosimi uning katta o‘g‘li Ro‘zimboyning uyida va o‘z uyida bo‘lib o‘tdi. Marosimiga Turkmaniston Prezidenti Gurbonguli Berdimuhamedov boshchiligidida bir guruh davlat rahbarlari kelishi taraddudi ko‘rilmoxda edi. Bu, albatta, bir kutilmagan voqeа bo‘lib, Sa‘dulla ota bilan muhtaram Prezident G.Berdimuhamedovning bir-birlariga bo‘lgan hurmat-ehtiromlari beqiyos ekanidan dalolat edi. Zero, bu holat otaning Prezident janoblari uchun qadri naqadar yuksakligini ko‘rsatardi. Muhtaram Prezident janoblari bu odamiylik tashrifи chog‘ida otaning o‘g‘illariga ta‘ziya bildirdi. Shundan so‘ng muhtaram imom otaning ruhi pokiga tilovat qildi. Ota haqida yaxshi gaplar aytildi. Prezident janoblari

qishloq madaniyat Saroyi oldida otaning haykalini o'rnatishga topshiriq bergan va boshqa tashrif tafsilotlarini Ro'zimboy bizlarga gapirib bergach, qabristonga ota qabrini ziyorat qilgani bordik. Otaning ruhi poklariga oyat o'qib, duoga qo'l ko'tardik. Qabr oq marmardan bejirim qilib, qurilish ishlari nihoyasiga yetgan edi. Biz buni, albatta, ota qalbining oqligi, beg'uborligi ramzi ekaniga yo'ydik. Qabr ustida gumbazli maqbara qurilsa, ayni muddao bo'lardi, degan fikr xayolimdan o'tdi. Ota haqida o'ylarim tobora oydinlashib borardi va nihoyat, uning "yuz to'ldi" marosimidan xabar topgach, bir kun oldin uyiga yetib bordik. Marosimga juda ko'p odam keldi, otaning nomiga duolar qilindi, farzandlariga yaxshi tilaklar bildirildi. Qabristonga ziyoratga borganimizda, o'ylaganimdek, ota qabri ustida maqbara qurilayotganini ko'rib fikrlarim yanada oydinlashdi. Otaning oxiri obod, Allohning nazari tushgan avliyotabiat hazrati insonligi haqida o'ylarim matomiga yetmoqda edi.

Keyingi yillarda ota hayot davrida va olamdan o'tgandan so'nggi voqealar ko'z oldimizdan bir-bir o'tardi. Ayniqsa, u 90 yoshda dam olishga chiqqanidan keyin haftada bir marta o'z mashinasida kuniga 300-400 kilometr yo'l bosib, dalalarni aylanib, kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida mutasaddi rahbarlar bilan yig'ilish o'tkazib, tegishli topshiriqlarni berishi va, nihoyat, natijasini bir haftadan so'ng borib nazorat qilishlariga nima deysiz?!

Shularni o'ylab yurib menda bir savol tug'ildi: ota bu kuch-qudratni qayerdan oldiykin? Yoki muhtaram Prezidentning ul zotga bo'lgan hurmat-izzatimi, yoki o'z xalqiga, eliga bo'lgan mehr-muhabbat tufaylimi, yoki shu zaminda yashab o'tgan ulug' avliyolar qo'llab-quvvatlaganidanmi? Buyuk insonlar o'zlarining halol mehnatlari, salohiyatlari, chin insoniy fazilatlari bilan jahonga mashhur bo'lganlar. Bahoviddin Naqshbandiy: "Qalbing Allohda, qo'ling mehnatda bo'lsin!", desa, at-Termiziy hazratlari: "Qalbing Allohda, aqlu hushing ilmda bo'lsin!",

deganlar. Bular haqida o‘ylasam, o‘z savolimga javob topganday bo‘laman. Ota haqiqatan ham afsonaviy avliyotabiat inson edi!

Haqiqatan ham Turkmaniston Qahramoni Sa‘dulla ota Ro‘zmatov o‘zining mazmunli umri davomida kelgusi avlodlar uchun unutilmas iz qoldirgan ajoyib insondir. U o‘zining mashaqqatli bolaligidan boshlab umri oxirigacha hayot yo‘lini aks ettiradigan “Mustaqillik – umrim ravshanligi” degan yirik xotiralar kitobining, shuningdek, o‘z ish tajribasi haqida hikoya qiluvchi “Shonli 60 yil”, “Sifat va samaradorlik – bosh mezon”, “Yer egasi” kabi kitoblarning ham muallifidir.

Sa‘dulla hoji otaning hayoti, uning halollik bilan o‘tgan umri, qilgan ishlari va insoniy fazilatlari, rahbarlik uslublari haqida ocherklar, madhiyalar, doston va roman, qisqa metrajli, hujjatlil filmlar yaratildi.

Ota haqida hikoya qiluvchi X.Melayev va R.Sobirovning “Yormish chiroqlari” kinofilmi, “Turkmentelefilm” ijodiy xodimlari tomonidan yaratilgan videofilmlar, G.Murodov, A.Paytik, A.Boboevlarning “Zamonamiz bobodehqoni” risolasi, Q.O‘rozqulievning “Mazmunli umr manzillari” ocherki, G.Murodov, G.A.Basharovlarning “Ishlab chiqarishning yuksak madaniyati – yutuqlar garovidir” kitobi, R.Sobirovning “Bobodehqon” romani, M.Qo‘shtonovning “Karvonboshi” ocherki, O.To‘rayevning “Yormish darg‘asi”, “Sa‘dulla otaning saboqlari”, “Tabarruk inson” kitoblari, Abdulvohid Saidmatovning “Ota”dostoni va boshqa bir qancha she’riy asarlar fikrimizning isbotidir.

Kelgusida bu ishlar, shubhasiz, yana-da davom ettiriladi. Otaning qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalardagi qimmatli ish tajribalari mukammal o‘rganilib, yirik-yirik monografiyalar yaratilishiga ishonamiz.

Shu o‘rinda hurmatli Prezidentimiz Islom Karimovning: “O‘tmishda ko‘p buyuk insonlar, avliyolar o‘tgan va bundan keyin ham shunday insonlar dunyoga kelaveradi”, degan fikrlari Sa‘dulla hoji otaga ham taalluqlidir.

Mana, otaning dunyodan o'tganiga ham ancha vaqt bo'ldi. Uning hayotlik davrida hech qachon e'tibordan soqit qilmagan ulug' ishlaridan biri marhumlarni qadrlash edi. Shu sababdan ham ota "Imorat bobo" qabristoni yonidan yangi loyihada qabriston barpo etishdek savobli ishga bosh-qosh bo'lgandilar. Bu obod maskanda mangu oromda yotgan turmush o'rtog'i O'g'iljon opa, hayotdan erta ketgan qizlari Enagul va boshqa yaqinlari qabrlarini oq marmardan tiklatib, atroflarini gulzor qilgan otaning o'zi bugun ularning qatorida.

2011 yilning 19 noyabrida otaning o'g'illaridan ota xotirasiga marosim o'tkazayotgani xabarini oldigu darrov yetib bordik. "Imorat bobo" masjidi yoniga tumonat odam yig'ilgan. Ro'zimboy, Komiljon, O'mirboy, Shuhratlar xuddi otalari singari xalqini yig'ib, marhumlar xotirasiga xudoyi qilayotgan ekanlar. Odamlar oqimi qabriston ichkarisiga tomon oqmoqda. O'z navbatimiz bilan biz ham ota yotgan qutlug' manzil poyiga yetib bordik. Bu yerda oppoq marmardan tiklangan mahobatli maqbaraga ko'zim tushib, to'lqinlanib ketdim. Bu imorat olis Ukrainadan otasining hokini keltirib, mana shunday ulug'vor maqbaraga joylash haqidagi otaning armonlarini o'g'illari qisman bo'lsa ham amalga oshirganidan bir darak edi. Bino ichidan qorining shirali ovozda qilgan tilovati, butun bir xalqning duoil fotihasi bu ibrat maskanga yana bir savob qo'shgandek bo'ldi. Maqbaraning chap tarafi kichkina maydoncha qilingan bo'lib, unda otaning bronzadan ishlangan byusti tiklangan, ornamentga esa otaning ulug' xizmatlari evaziga olgan orden va medallari shakli tushirilgan. Byustdan oldinroqda mo'jazgina yodgorlik toshi o'rnatilgan bo'lib, unga ota umr mazmunining bayoni bo'lib yangrovchi, u bir umr amal qilib

kelgan sinmas qoida timsoli Bobur Mirzoning ushbu to'rtligi o'yib yozilgan:

**Har kimki vafo qilsa, vafo topgusidir,
Har kimki jafo qilsa, jafo topgusidir.
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topgusidir.**

Muqaddas qadamjoni ziyorat etib, orqaga qaytarkanman, o'zimni ko'nglimga ilohiy nur quyilgan kabi sezdim. Aminmanki, bu holat birgina menda emas, butun el ko'nglida namoyon bo'lgan. Bu – nurafshon umrning o'z xalqi qalbiga mangu ko'chishi edi.

**2011 yil, sentyabr-noyabr.
Xorazm-Doshog'iz**

RAHIM TOHIROV

Nurafshon umr

(Sa'dulla Ro'zmatov haqida xotiralar)

Muharrir:

A.Dehqonov

Musahhiha:

M.Nuriddinova

Dizayner-sahifalovchi:

Alisher Shomahmudov

«Muharrir» nashriyoti

Litsenziya: AI №099, 2008 yil 24 martda berilgan.

Terishga 2012 yil 09 martda berildi.

Bosishga 2012 yil 24 aprelda ruxsat etildi.

Bichimi 84×108 1/32. "Virtec Times" garniturasida.

Ofset bosma usulida ofset qog'oziga bosildi.

Shartli b.t. 3,2. Nashr t. 4. Adadi 500 nusxa.

Buyurtma № 49. Narxi shartnoma asosida.

"Muharrir" nashriyoti matbaa bo'limida chop etildi.

100600, Toshkent shahri, Elbek ko'chasi, 8-uy.